

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası**

YUSUPOVA MA’SUDA

**Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining «Qunduz bilan
Yulduz» dostonidagi zoonimlarning leksik-
semantik va uslubiy xususiyatlari.**

5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

f.f.n. Mahmadiyev Sh.

SAMARQAND - 2013

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası**

YUSUPOVA MA’SUDA

**Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining «Qunduz bilan
Yulduz» dostonidagi zoonimlarning leksik-
semantik va uslubiy xususiyatlari.**

**5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
Bitiruv malakaviy ishi**

Ilmiy rahbar

f.f.n. Mahmadiyev Sh.

Rasmiy taqrizchi

Bitiruv malakaviy ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2015-yil ____-maydagi
majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (9-son bayonnoma).

Kafedra mudiri

prof. A. Abdusaidov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2014-yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan
va ____ ball bilan baholangan (____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

A‘zolari:

SAMARQAND - 2013

MUNDARIJA

Malakaviy bitiruv ishining umumiy tavsifi.....	4-7
Kirish.....	8-14
I Bob. «Qunduz bilan Yulduz» dostonidagi zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	15-32
1.1. Xalq dostonlarida ot nomlari va ularning leksik-semantik belgilari.....	15-20
1.2. Xalq dostonlarida qush nomlari	21-27
1.3. Xalq dostonlarida hayvon nomlari.....	27-32
II Bob. Doston matnidagi zoomorfizmlar va ularning uslubiy xususiyatlari...	33-49
2.1. Zoonimlarga xoslangan emotsional bo‘yoqdorlik	33-37
2.2. Zoomorfizmlarning metaforik xususiyatlari.....	37-49
Umumiy xulosalar.	50-51
Foydalanilgan adabiyotlar.....	52-56

MALAKAVIY BITIRUV ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviy boyliklarimizning katta bir qismini xalq og'zaki ijodi namunalari tashkil qiladi. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning «Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko'z o'ngimizdan o'tkazar ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojiga bevosita dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda, biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kerak... Milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinini ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish»¹, - degan fikri hayotiy xulosalar sifatida ilmiy tadqiqot ishlarida ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, bu qarashlar xalqimiz tili tarixini, uning tarkibiy qismi bo'lgan folklor asarlari lingvistik tarkibini keng yo'nalishda o'rganishga da'vat etadi.

O'zbek folklorining keng tarqalgan, yirik janrlaridan biri dostonidir. Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhiyatining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorlik hisoblanadi. Ular ona tilimizning beqiyos boyliklarini, cheksiz imkoniyatlarini hamda uning umumturkiy va milliy bosqichlariga xos tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiruvchi dalillarni o'zida asrab kelayotgan mumtoz badiiy manbalardandir. Shu nuqtayi nazardan xalqimiz orasida mashhur bo'lgan dostonlar matnidagi zoonimlarning lingvistik xususiyatlarini turli aspektlarda

¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.78.

o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.² O'zbek tilida qush va hayvonlar uchun maxsus qo'yilgan laqab-nomlar uchraydi. Bu nomlar ularni bir-biridan ajratish va farqlash uchun xizmat qiladi...Zoonimlar alohida yakka qush yoki hayvonga berilgan laqab-nomlar bo'lgani uchun atoqli otdir. It, mushuk, ot, ba'zi hollarda qushlarga nisbatan ham maxsus nom berish o'zbek tilida keng tarqalgan. Zoonimlarning o'zbek tilidagi materiallari keng tadqiqotni talab qiladi.³

Mazkur malakaviy bitiruv ishi ana shu nuqtayi nazardan tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turkologiya, xususan, o'zbek tilshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlari, xususan, mavzumiz obyekti hisoblangan zoonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan D.X.Bozorova, I.F.Ishberdin, F.Is'hoqov, Sh.Nosirov, S.Usmonov, D.Yo'ldosheva, G.Jumanazarovalarning tadqiqotlari xarakterlidir.⁴ Bulardan tashqari, xalq dostonlari leksikasini tadqiq etish yoki zoonimlarning xarakterli xususiyatlariga oid Sh.Shoabdurahmonov, A.Hafizova, O.To'raqulov, X.Donyorov, A.Ishayev, S.Tursunov kabi olimlarimizning mavzu bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bir qator tadqiqotlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.⁵

² Зооним [зоо...+ юн. опута – ном, исм]. Хайвон номлари билан боғлиқ сўзлар // Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. 2-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. –Б.159.

³ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: ФАН, 1985. – Б.18.

⁴ Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). - Ташкент, 1978.; Ишбердин Э.Ф. Наименования птиц в башкирских говорах // «Вопросы башкирского языкознания». – Уфа, 1973.; Ф.Исҳоқов «Зарбулмасал»даги қуш номларига доир // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1973, №1. -Б.46-50.; Носиров Ш. Диалектал орнитологияга оид кузатишлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1986, №5. -Б.56-60; Усмонов С. Йилқичиликка алоқадор номлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1987, №6. Б. -55-57.; Yo'ldosheva D. O'zbek tilida ornitonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari haqida. – Samarqand, 2007.–105 b.; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопoeтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик тахлил). – Тошкент, 2012. -288 б.

⁵ Шоабдурахмонов Ш. «Равшан» достонининг тили ҳақида // «Эргаш шоир ва унинг достончилиқдаги ўрни» тўплами. 2-китоб. - Тошкент, 1971. - Б. 146-172.; Ҳафизова А. «Келурнома» лексикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. -№5. - Б.68-71.; Тўрақулов О. Қўқон группа шевалярининг хусусий лексикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. -№2. - Б.79-83.; Дониёров Х. Қипчок диалектларининг лексикаси. - Тошкент: Фан, 1979. - 160 б.; Ишаев А. Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. -№5. - Б.56-58.; Турсунов С. «Алпомиш» дostonи лексикасини ўрганишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. -№ 3. - Б. 36-38.

Ana shunday tadqiqotlarga tayangan holda o'zbek xalq dostonlaridagi zoonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganish, tadqiq etish ishning qimmatini oshiradi.

Bitiruv ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'rganilayotgan hamda amalda bajarilayotgan mavzu tarkibiga kiradi.

Bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Ushbu malakaviy bitiruv ishining bosh maqsadi o'rganish obyekti qilib olingan doston matnidagi zoonimlarning leksik-semantik, stilistik xususiyatlarini yoritish, ularni mavjud lug'atlardagi izohini qiyoslashdan iborat. Shu bilan birga tadqiqot obyekti qilib olingan doston matnidagi zoonimlarni ma'lum bir leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish va ularning doston matnidagi uslubiy xususiyatlarini ham ma'lum darajada ko'rsata bera olish ishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Bitiruv ishi uchun tanlangan mavzuni o'rganish va uni yoritish jarayonidagi ilmiy yangiliklar quyidagilar bilan belgilanadi:

- dostonlar matnida xalqimizning boy o'tmishiga oid xarakterli materiallar, xususan, zoonimlar ham katta qismni tashkil etishi, ularning aksariyati umumturkiy qatlamga mansubligi;

- doston matnidagi ot nomlari jismoniy qobiliyati, jinsi, yoshi, rang-tusi, shakl-ko'rinishi va boshqa xususiyatlariga ko'ra farqlanishi;

- doston matnidagi qush nomlarini ham yirik yirtqich qushlar, nisbatan kichik ko'rinishiga ko'ra ega chiroyli qushlar kabi leksik-semantik guruhlanishi;

- hayvon nomlari, ya'ni uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, ularning o'xshash va farqli belgi xususiyatlari doston matnidan olingan misollar asosida tasnif qilindi;

- doston matnida qo'llanilgan zoomorfizmlar yuzaga keltirgan emotsional-ekspressiv, uslubiy xususiyatlar to'plangan misollar asosida tahlil etildi va ular asosida ma'lum bir umumlashma xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot manbalari. Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Qunduz bilan Yulduz» dostoni asosiy tadqiqot obyekti vazifasini o'tadi⁶. Bulardan tashqari, doston matnidagi mavzu bilan bog'liq leksik birliklar turli xil tarixiy va zamonaviy leksikografik lug'atlar asosida o'rganildi va ish davomida ulardan samarali foydalanildi.

Ishning amaliy ahamiyati ko'p jihatdan leksikologiya va leksikografiya masalalari bilan bog'lanadi. Ya'ni, mazkur malakaviy tadqiqot materiallari asosida zoonimlarning ma'lum bir leksik-semantik guruhlanishi, darajalanishi, etimologiyasi haqida ham ma'lumotlar olish va ulardan kerakli o'rinlarda foydalanish mumkin bo'ladi.

Malakaviy bitiruv ishi tadqiqotning umumiy tavsifi, kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning kirish qismida mavzu tadqiqi bilan bog'liq tadqiqotlar hamda o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar xususida munosabat bildirilgan. Ishning birinchi bobida doston matnidagi zoonimlar, xususan, ot nomlari, qush nomlari hayvon va boshqa shu kabilarning leksik-semantik xususiyatlari butun-bo'lak, tur-jins kabi pog'onali munosabatlar asosida ochib berishga harakat qilindi. Malakaviy bitiruv ishining ikkinchi bobida dostonda qo'llanilgan zoomorfizmlarning uslubiy xususiyatlari xarakterli misollar asosida tahliliga tortilgan va matndagi ma'nolari imkoniyat darajasida yoritilgan. Kuzatishlar natijasida ishning xulosa qismi bayon qilingan.

⁶ «Қундуз билан Юлдуз». Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли / Булбул тароналари, беш томлик, 3-том. - Тошкент: Фан, 1972. -Б. 203 - 458.

Kirish

O'zbek tilshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlarining leksik-semantik xususiyatlari monografik planda to'lig'icha yoritilmagan. Atoqli folklorshunosimiz H.T.Zarifov o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining lug'at boyligi haqida to'xtalib, quyidagicha munosabat bildirgan edi: «Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug'at boyligi bilan belgilandi. Umuman xalq tilidagi har bir so'z va ta'bir folklor asarlarida o'zining munosib o'rnini topgan. Bu boy leksika adabiy tilimizni boyitish uchun asosiy manbalardan hisoblanganidek, o'zbek tili tarixini, shevalar taraqqiyoti yo'llarini o'rganish uchun muhimdir».⁷

Xalq dostonlari davrlar osha ko'p o'zgarishlarga uchrab, silliqlashgan bo'lsa ham, biroq ularga o'tgan davrlar ruhini o'ziga singdirgan so'zlar ham ancha. Olim H.T.Zarifov ana shunday so'zlar ustida to'xtalib, «Folklor asarlarning leksikasi umuman hozirgi shevalarda iste'molda bo'lgan lug'atlar bo'lishi bilan birga, ular orasida arxaik bo'lganlari, ma'nosini sheva vakillarining o'zlari bilmaganlari ham uchrab turadi» - deb yozadi. Haqiqatdan ham ko'pchilik folklor asarlarda, xususan, dostonlarda so'zning asl lug'aviy mazmuni kuylovchiga ham aniq bo'lmagan bo'lishi mumkin. Bunga sabab, dostonlar avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga og'zaki ravishda do'mbira, qo'buz, tor kabi xalq cholg'u asboblari ohangi jo'rida meros qoldirib kelinganligi va hozir ham shunday bo'lib qolganligidir.

Ana shunday an'anaviy leksik qatlamlarni biz Qo'rg'on dostonchilik maktabining talantli vakili Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Qunduz bilan Yulduz" dostonidagi zoonimlar va ularning leksik-semantik xususiyatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda Ergash Jumanbulbul haqida ikki og'iz so'z. Ma'lumki, qadimiy Nurota va Qo'shrabotning purviqor Oqtov va Qorator tog'lari oralig'ida, aniqrog'i, Oqtovning shimoliy etaklarida elning dardu-alamini, qayg'u-hasratini kuylagan Qo'rg'on dostonchilik maktabining xushovoz, bulbulzabon vakillari yashab ijod etishgan.

⁷ Ходи Зариф Ислон шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. - Тошкент, 1978. - Б. 133.

Qo'rg'on dostonchilik maktabi XVII asrda yashab o'tgan Yodgor baxshi nomi bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik bu maktabni Lapas baxshi, mulla Tosh baxshi, mulla Xolmurod baxshi, Sulton kampir, Tilla kampir, Jolmon baxshi, Bo'ron baxshi, Jumanbulbul baxshi, Yorlaqab baxshi, Jossoq baxshi, Qulsamad baxshi, Ergash baxshi, Po'ltan shoir, Bo'ta baxshi, Mardi baxshi, Egamberdi baxshi, Rahmatulla baxshi kabi o'nlab zabardast vakillari yanada rivojlantirdilar.

Ergash Jumanbulbul o'g'li ana shu baxshilar silsilasining eng yirik va dovruqli vakilidir.

Ergash Jumanbulbul o'g'li 1868-yil hozirgi Qo'shrabot tumanining Jo'sh dahasidagi Qo'rg'on qishlog'ida yetti pushti baxshi o'tgan oilada dunyoga kelgan. Bu haqda u o'zining "Tarjimai holi"da "Men Zarafshon viloyatining Nurota jaribining, Jo'sh dahasining Qo'rg'on qishlog'idan - Mulla Ergash - 61 yashar Jumanbulbul o'g'li, Jumanbulbul Mulla Xolmurodning o'g'li, Mulla Xolmurod Mulla Toshning o'g'li, Mulla Tosh usta Lapasning o'g'li, usta Lapas Yodgorning o'g'li. O'zim o'zbek, turkman jamoasidan, asl zotim Qorakissa qozoyoqligiga quyiladi"⁸, - deb bayon etadi.

Ergash Jumanbulbul o'g'li yoshligidan ziyrak, bilimga chanqoq, so'zga chechan bo'lib o'sadi. Zero, uning o'zi kuylaganidek,

Men chechanman, o'zim so'zning ustasi,

Mendan qolgan katta shoir nusxasi.

Yetti pushtim bari shoirga katta,

Ularning so'zining yo'qdir qisqasi.

Darhaqiqat, shoir haq edi. Chunki uning o'zi sodda, jaydari, to'pori, tili biyron xalqning farzandi edi.

Ergash Jumanbulbul o'g'li 1875-1876-yillarda qishloq masjidida ma'rifatparvar Mulla O'tamurod qo'lida savod chiqaradi. 1884-1885-yillarda Buxoro madrasalaridan birida tahsil oladi. Bu yerda u fors, arab tillarini

⁸ Қаранг: Мамаюсупов А. Самарқанд бахшичилик мактаблари: кеча ва бугун// "Шарқ юлдузи", 2007 йил, №3-сон. –Б.162.

mukammal o‘rganadi. Fuzuliy, Navoiy, Mashrab, So‘fi Ollohyor asarlarini chuqur o‘rganadi. O‘tkir xotirasi va kuchli quvvai hofizasi tufayli qirqdan ortiq dostonni o‘rganadi, yod oladi. Elning katta-kichik to‘yu-marakasida “Kuntug‘mish”, “Yakka Ahmad”, “Qizjibak”, “Alibek va Bolibek”, “Dalli”, “Ravshan”, “Qunduz va Yulduz”, “Xushkeldi”, “Xoldorxon”, “Avazxon”, “Xirmon”, “Nurali”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Vomiq va Uzro”, “Varqa va Gulshoh”, “Maxtumquli”, “Tulumbiy” kabi dostonlar bilan birga, “Berdiyor otaliq”, “Zamonbek”, “Xidirali elbegi”, “Misqol pari”, “Yunus pari”, “Oysuluv”, “Qironxon”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”⁹ kabi xalq badihalarini to‘lib-toshib kuylaydi. 1928-yilda folklorshunos olim Xodi Zarif birinchi marta Ergash Jumanbulbul baxshidan “Ravshan” dostonini yozib oladi. Ergash shoir bu dostonni otasidan, otasi Jumanbulbul esa uni ustози Kichik Bo‘rondan o‘rgangan edi. 1937-yilda Ergash Jumanbulbul o‘g‘li Toshkentda bo‘ladi. Bu yerda Hodi Zarif undan “Dalli”, “Xushkeldi”, “Qunduz bilan Yulduz” dostonlarini yozib oladi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li buloqdek qaynagan Qo‘rg‘on dostonchilik maktabini yanada rivojlantirdi, unga jilo, sayqal berib yangi maktabga asos soldi. Bu xususida Muhammadali Qo‘shmoqboy, “Ergash Jumanbulbul o‘g‘li o‘zbek dostonlarining xazinaboni edi. U Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining ustози-qariyb hamma dostonlarni biluvchi va shogirdlariga o‘rgatuvchi Jossoq shoirning vorisi edi. Qo‘rg‘on dostonchilari mahorati, ibрати-Jumanbulbul o‘g‘lida davom etdi... Ergash Jumanbulbul o‘g‘li doston aytganida hamisha jo‘sh-xurushga kirib, shunday bedaxillik va ma‘naviy yuksaklikka erishadiki, u butun koinotni kaftiga simobdek quyib, kuzatib turganga o‘xshaydi... Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining estetik ideali Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi estetik idealini to‘la-to‘kis mujassam etadi.”¹⁰ - deb, ta’kidlaydi.

O‘zbek tili leksikasida kam o‘rganilgan leksik qatlamlardan biri, ayniqsa, dostonlar tilida saqlanib kelayotgan xilma-xil tematik guruhlariga mansub

⁹ Қаранг: Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б.200.

¹⁰ Муҳамадали Қўшмоқбой. Мулла Эргаш-булбул Эргаш // “Гулистон” 2002 йил, №3-сон. – Б. 60-61.

zoonimlarni o'rganish mazkur malakaviy bitiruv ishining bosh masalasidir. Chunki xalq og'zaki ijodi janrlari, xususan, xalq dostonlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ham zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlari monografik tadqiqot obyekti bo'lgan emas. To'g'ri, tadqiqotlarda xalq og'zaki ijodi janrlari leksikasi bilan bog'liq masalalar ma'lum darajada o'rganilgan.¹¹ Xususan, Sh.Shoabdurahmonov tomonidan «Ravshan», R.Rasulov va S.Tursunovlar tomonidan «Alpomish» dostonlarining, J.Abdullayev va M.Saparniyazovalar tomonidan topishmoqlarning, F.Xaitova va M.Jumaniyozovalar tomonidan ayrim xalq qo'shiqlarining til xususiyatlari, J.Xolmurotova tomonidan Shimoliy Xorazm dostonlari, A.Rahimov, Sh.Mahmadiyev, A.Xalikov, G.Jumanazarovalar tomonidan o'zbek xalq dostonlari, Z.Xolmonova tomonidan «Shayboniyxon» dostoni leksikasining nomzodlik dissertasiyasi darajasida o'rganilishi, xalq og'zaki ijodi janrlarining sintaktik xususiyatlari X.Abdurahmonov tomonidan doktorlik dissertasiyasi sifatida himoya qilinishi tilshunosligimiz uchun katta ijobiy hodisa sifatida baholanadi. Kuzatishlar natijasida dostonlar tilining ilmiy tahlili salmoqli o'rin egallashi ma'lum bo'ladi. Faqatgina yuqoridagi tadqiqotlarning ba'zilarida mavzu tadqiqi bilan bog'liq masalaning u yoki bu jihati haqida ba'zi ma'lumotlarini kuzatishimiz mumkin. Xususan, M.Jumaniyozovaning «Xorazm xalq qo'shiqlari leksikasi» deb nomlangan dissertasion ishi ham qo'shiqlar matni lingvistikasini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot qo'shiqlarning lug'aviy

¹¹ Шаабдурахманов Ш. О художественных средствах языка поэмы “Равшан”: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1949. – 8 с.; Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Т., 1971.; Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане “Алпамыш”: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Т., 1981. –23 с.; Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпамыш”: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Т., 1990. –19 с.; Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1994. –20 б.; Хаитова Ф.Б. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лисоний талқини: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1998. – 24 б.; Жуманиёзова М.Х. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1999. – 24 б.; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. –27 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2005. – 24 б.); Халиков А. «Ўрўғлининг туғилиши» дostonи тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2009. –26 б.; Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. –Тошкент, 2007. –26 б.; Жуманазарова Г.У. «Ширин билан Шакар» дostonининг луғавий ва лингвоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варинти асосида):Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2008. –26 б.

tiziminigina qamrab olganligi bilan xarakterlidir. Unda Xorazm xalq qo'shiqlarining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi masalasiga to'xtalib o'tilgan. Leksik birliklarning mintaqaviy-uslubiy va jonli so'zlashuvga xos jihatlari o'rganilishi ishning katta yutug'idir. O'zlashgan so'zlarning aksariyat qismi genetik jihatdan eroniy va arab tiliga mansubligi, arabcha so'zlarning mavhum, eroniy so'zlarning konkret xarakterga egaligi va ular uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechaklar, taqinchoq va bezaklar, o'simliklar va hayvon va hasharotlar nomlaridan iboratligi haqidagi xulosalar chiqarilib, *ko'rra* (xo'tik), *shag'al* (chiyabo'ri), *gajdim* (chayon) ekanligi haqida ma'lumot berilgan.¹²

A.Rahimov tadqiqotida zoonimlarning qadimgi turkiy tilda va dostonlar matnida uchraydigan variantlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan: *ilon* (yilan, 12-b.), *to'qim* (qoramol, bo'qa, 12-b.), *ang* (qush) - eski o'zbek va boshqa turkiy tillarda umuman, ovlanadigan qush va hayvon ekanligini; dostonlar matnida *ang//ong* shaklida qo'llanilishini bayon etadi: Mergan otar suvsiz cho'lning *ongini*; Yuzta *ang*ning go'shtini yeb (13-b.) Tadqiqotning uchinchi bobida, ya'ni «Xalq og'zaki ijodiga xos an'anaviy leksik vositalar» qismida zoonimlardan o'xshatish vositasi foydanish haqida munosabat bildiriladi. M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Yu.H.Hojibning «Qutadg'u bilig», Ergash Jumanbulbul o'g'li va turkmanlarning «Go'ro'g'li» dostonlaridan olingan misollar asosida «*sher*», «*arслан*», «*qarchig'ay*», *g'o'ch//g'o'sh//qo's* (qo'chqor, qo'y, 18-b.) kabi zoomorfizmlarning metaforik qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan.¹³

G.Jumanazarova nomzodlik dissertasiyasining 2-bobida «Dostondagi so'zlarning mavzuiy guruhlari va ularning leksik-semantik tabiati» qismida faol qo'llanuvchi o'n yetti guruhdagi leksik birliklar qatorida ot, tulki, sher, yo'lbars, ajdarho, chavkar, ilon, cho'chqa-qobon, kuchuk, maymun, zog', qirg'iy, bulbul, so'na, qarchig'ay, to'ti, lochin va boshqalarni keltiradi (13-b.). Tadqiqotning

¹² Жуманиёзова М.Х. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1999. –Б. 10.

¹³ Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. -27 б.

uchinchi bobi, ya'ni «Doston leksikasining lingvopoetik xususiyatlari» masalalariga bag'ishlangan qismida *saman ot, bedov ot, tulpor, yo 'rg'a* kabilarning epik qahramonning jang-u jadallarda, shikor va ovlarda qatnashgan biror otiga berilgan sifatlari sifatida qayd etadi (16-b.).¹⁴

Keyingi yillarda xalq og'zaki ijodi namunalari, shuningdek, dostonlar tilining lingvistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida B.To'ychiboyevning kuzatishlari alohida qimmatga ega bo'ldi. Uning «Alpomish» va xalq tili» asari «Alpomish» dostonining lingvostilistik tahliliga bag'ishlangan. Muallif dostonlarga og'zaki adabiy til namunasi, adabiy tilni boyituvchi manba sifatida qaraydi, ularda ijrochilar til xususiyatlarining aks etishini tabiiy bir hol deb hisoblaydi. «Ijrochi shevasi doston tilining xususiyatini belgilashda muhim o'rin egallaydi. Darhaqiqat, qipchoq shevasi o'zining rang-barangligi, ohori to'kilmagan uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligi, turli-tuman o'ziga xos jihatlari bilan kishining e'tiborini o'ziga beixtiyor tortadi, kuzatuvchini o'ziga moyil qiladi, rom etadi. Qipchoq shevasining bu xususiyati, shu jihatdan to'lig'icha «Alpomish» dostonining til xususiyatini belgilaydi» degan fikrda bo'lib, tadqiqot davomida ana shu qarashlar dalillab beriladi. Dostonlarni kuylashdagi musiqaviylikni, o'zbeklarning o'ziga xos tarixi va turmush tarzini, udumlari va qadriyatlarini, muomala va muloqot jarayonlarini ot, tuya, qo'y kabi jonivorlar misolidagi an'anaviy obrazlarni, faqatgina xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan o'xshatish, epitet, mubolag'a kabi poetik vositalarni «Alpomish» til materiali asosida ishonarli tahlil qiladi. B.To'ychiboyevning ushbu asarida biz tadqiq etishni maqsad qilgan ayrim zoonimlar, xususan, ot nomlarining leksik-semantik xususiyatlari «Alpomish» dostoni matnididan olingan misollar asosida tahlil qilinadi.¹⁵ Biz malakaviy bitiruv ishimizning ma'lum bir o'rinlarida bu tadqiqotga murojaat qilamiz va undan foydalanamiz.

¹⁴ Жуманазарова Г.У. «Ширин билан Шакар» дostonининг луғавий ва лингвоэтик хусусиятлари (фозил Йўлдош ўғли варианты асосида): Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2008. -26 б.

¹⁵ Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили. - Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. - 160 б.

Sh.Mahmadiyev tadqiqotining uchinchi bobida dostonlar matnidagi stilistik formulalarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinib, asrlar davomida xalq tili boyligining nodir xazinasini oʻzida mujassam qilgan xalq ogʻzaki ijodi namunalari tili leksik jihatdan rang-barang ekanligi, dostonlar matnida ham oʻziga xos leksik qatlamlar shakllanganligi, folklorga xos boʻlgan leksik fondning shakllanganligi tufayli badiiy ijodda ulardan tanlab foydalanish imkoniyati vujudga kelganligini qayd etadi. Stilistik formulalar uchun til birliklarini tanlash masʼuliyati qay darajada muhim ekanligiga aniqlik kiritish maqsadida «Alpomish», «Kuntugʻmish», «Yakka Ahmad» va «Kunlarim» dostonlarida bir marta qoʻllangan 55 ta tasviriy vositaning soʻzligi tuzilib, bu birliklarning leksik-semantik qiyofasi turli-tuman boʻlib, umumxalq tiliga xos boʻlgan leksik birliklar, dialektal-tarixiy, obrazli elementlardan iboratligi, ana shu soʻz va iboralarning maʼlum qismi tayanch birlik vazifasini oʻtashi aytiladi va mavzu bilan bogʻliq umumisteʼmoldagi soʻzlar sifatida qush va hayvon nomlari: *bulbul, lochin, suqsur, soʻna, turna, turgʻay, shunqor, oʻrdak, qarchigʻay, gʻoz, argʻimoq, bedov, kiyik, loʻkcha, mol, moya, jondor, nor, olqor, ot, tulpor, boʻz* kabilar keltiriladi.¹⁶

Umuman, tahlillardan koʻrinadiki, maʼlum bir doston matnidagi zoonimlar monografik tadqiq etilmaganligi, yuqorida koʻrib chiqqan ishlarimizda ham ularning maʼlum bir xususiyatlari haqida umumlashma xarakterdagi munosabatlarni koʻrishimiz mumkin. Ana shulardan kelib chiqib, mazkur malakaviy bitiruv ishimizda Ergash Jumanbulbul oʻgʻlining «Qunduz bilan Yulduz» dostonidagi zoonimlarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlarini oʻrganish dolzarbligini anglashimiz mumkin.

¹⁶ Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. –Тошкент, 2007. –Б. 107-108.

I.BOB

«QUNDUZ BILAN YULDUZ» DOSTONIDAGI ZONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

1.Xalq dostonlarida ot nomlari va ularning leksik-semantik belgilari.

O'zbek tili qadimiy yozma yodgorliklarga boy tillardan sanaladi. Uning leksikasi xilma-xil kasb-hunar terminlariga boy. Jumladan, yilqichilik bilan bog'liq bo'lgan terminlar o'zbek tili leksikasida salmoqli o'rin egallaydi... Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi qadim-qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Yilqichilik – chorvachilikning kattagina bir tarmog'i. Boshqa xalqlar singari o'zbek xalqi ham qadimdan yilqichilikni maxsus kasb etib kelgan. Natijada o'zbek tilida yilqi boquvchilar, otlarni parvarish qiluvchilar, ularni o'rgatuvchilar, ot bilan savdo qiluvchilar, ot abzallarini yasovchilarni o'ziga xos atamaları paydo bo'lgan. Gipologik (gippologiya – grek. hippos – ot+logiya, ya'ni ot haqidagi fan) terminologiyaning qarab chiqilayotgan tematik gruppasida asli o'zbek (umumturkiy) qatlam mavjudki, bu yilqichilikka oid terminlarning qadimdan mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi.¹⁷

Xalq dostonlarida ko'pgina zoonimlar bilan bir qatorda ot nomlari ham anchagina miqdorda uchraydi. Biz ko'rib chiqqan dostonlarda, xususan, Ergash shoirning «Xushkeldi» va «Qunduz bilan Yulduz» dostonida otlarning o'ttizdan ortiq nomlari kuzatiladi.¹⁸ Bu nomlar o'zining leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra otlarning qo'yidagi belgilarini ifodalashga xizmat qiladi.

¹⁷ Усмонов С. Йилкичиликка алоқадор номлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналі, 1987, №6. Б.55-57.

¹⁸ Эргаш Жуманбулбул ўғли. Булбул тароналари, беш томлик, 3-том. - Тошкент: Фан, 1972. - 475 б. («Хушкелди» ва «Қундуз билан Юлдуз»). Бундан кейин ишда таҳлил қилинган мисолларнинг шу манбадан олинган томи ва саҳифаси кўрсатилади. Қуйидаги луғатлар ҳам шу асосда кўрсатилиб, уларнинг қисқартма шакллари берилади.

1. 1. Otlarning jismoniy qobiliyatiga ko‘ra tasnifi:

a) Chopqir va chaqqon zotdor otlar: arg‘umoq (20, III), aspi tozi (53, III), arabi ot (243, III), bedov ot (20, III), churra bedov (332, III), beli do‘ng ot (122, III), duldul ot (22, III), yugurik ot (67, III), so‘poq ot (264, III), to‘riq ot (158, III), tulpor ot (233, III);

b) Zoti past, yaroqsiz otlar: yobi ot (280, III), partal ot (39, III), cho‘mmoq ot (351, III), cho‘ntoq ot (242, III), cho‘bir ot (265, III).

Jismoniy qobiliyatiga ko‘ra farqlanuvchi bu ot turlarini ajratilishiga qo‘yidagi so‘zlar asos bo‘lib xizmat qiladi:

1. **Tozi** - manbalarda qayd etilishicha, tozi so‘zi arab xalqiga nisbatan ishlatilgan (DTS, 543-bet)¹⁹. Shuningdek, qadimgi turkiy manbalarda tozi-terisi yo‘l-yo‘l, ola-bula otlarga nisbatan ham qo‘llangan. Masalan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida “*taz at*” ana shunday izohlangan: *taz at* tafarchi bo‘lmas - terisi yo‘l-yo‘l olacha ot yuk tashiydigan bo‘lmaydi. Chunki uning tirnog‘i yomondir (DLT, 163, III).²⁰ «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da tozi - arabcha chopag‘on ov iti; uchqur arabiy ot; chopqir ot, tulpor ma’nolarida izohlangan (O‘TIL, 133)²¹. Nazarimizda, bu otning nomlanishida M.Koshg‘ariy qayd etib o‘tganidek, ot terisidagi belgi asos bo‘lib xizmat qilgan.

2. **Arabi, bedov** - tarixda ajdodlarimiz tomonidan arab zotli otlarga alohida e‘tibor berilgan. Dostonlarda uchraydigan bedov - arabcha, cho‘lda yashovchi sahroyi ma’nosidagi badaviy so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib (NAL, 78-bet)²², mazkur so‘zning ma’no ko‘chishi natijasida arab oti, chopqir, uchqur singari sifatlarga ega bo‘lgan ot ma’nosi yuzaga kelgan (NAL, 105-bet). O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da **bedav** (forscha) - yugurik, uchqur yoki arabcha sahroyi ot ma’nolarida izohlangan (O‘TIL, I, 205).

¹⁹ Древнийтюркских словарь. – Ленинград: Наука, 1969.

²⁰ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. III том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФА, 1963.

²¹ Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.

²² Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

Dostonlarda chopqir arabi otlarni tavsiflashda **churra** soʻzi ham ishlatiladi. Churra soʻzi Radlovning qayd etishicha, turkiy tillarda mehnatkash maʼnosini ifodalaydi (Rad, 219, III)²³.

Shunday qilib, **churra bedov** - chopqir, epchil, mehnatkash, zotdor ot maʼnolarini ifoda etadi.

3. Otlarning ijobiy xususiyatlarini koʻrsatilishida beli doʻng epiteti ham ishlatiladi. Bu epitetning yuzaga kelishida klassik manbalarda qoʻllangan dol soʻzi (dol - arab alibosidagi د ni ifodalovchi harf) asos boʻlib xizmat qilgan. Qiyoslang: **dol bedov** - beli doʻng ot.²⁴

4.**Duldul** - arabcha soʻz boʻlib, diniy afsonaga koʻra Muhammad paygʻambar mingan va keyincha Hazrat Aliga tortiq qilgan uchar otning ismi yoki laqabi. Soʻzning metoforik qoʻllanishi chopqir, tez, chaqqon yuguruvchi otlarga nisbatan mazkur soʻzning qoʻllanishiga asos boʻlgan. (OʻTIL, I, 659)

5. Shuningdek, chopqir va chaqqon zotdor otlarga nisbatan **yuguruk** (yugur+uk) chopqir, soʻpoq - choʻziq gavdali, toʻriq - qora, qizil tusli jigarrang ot, tulpor – mefik afsonaviy qanotli uchqur ot singari sifatlashlar ham keng qoʻllaniladi. Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan «Oʻzbek tilining etimologik lugʻati»da **yugurik** – «tez chopadigan», «chopqir» otga xos xususiyat bildiruvchi sifat sifatida baholaydi.²⁵ Izohli lugʻatda ham shu tarzda izohlangan. M.Koshgʻariyda shunday izohlangan: **jugruk at** – yugruk ot. Poygada oʻzib ketadigan chopqir ot (DLT, 52, III).

6. Zoti past, chopish uchun yaroqsiz boʻlgan otlar uchun emotsional boʻyogʻiga koʻra salbiy soʻzlar sifatlovchi (epitet) sifatida qoʻllaniladi. Masalan, **yobi** soʻzi qadimgi turkiy manbalarda va turkiy tillarda oriq, makkor, jahldor, yaramas, och hayvonlarga va shaxslarga nisbatan ham ishlatilgan (Radlov, 279, III). OʻTILda (forscha) – yuk tashuvchi, nasli past, xashaki ot maʼnosida izohlangan (OʻTIL, II, 133).

²³ Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санктпетербург, 1905.

²⁴ Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

²⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. –Б. 181.

Bunday mazmun dostonidagi qo‘yidagi misralarda ham o‘z ifodasini topgan:

Yomon otli yo‘lda qolar,

Yobi mingan odam tolar. (280, III)

Shuningdek, otlarning salbiy xususiyatga ega ekanligi **partol** – otliq safarda yuk ortiladigan ot, xachir (H.Zarifov asar ilovasidagi lug‘atida bu so‘zni shunday ta’riflagan. 460, III)

Cho‘mmoq - yoli va dumi ozaygan, kalta bo‘lib qolgan ot.

Cho‘bir - oriq, yaroqsiz, yungi o‘sib ketgan ot ma’nolarida keltirilgan. (Radlov 2029, III)

1.2. Jinsiga ko‘ra otlarning tasnifi.

Dostonlarda uchraydigan ot nomlari o‘zining leksik-semantik xususiyatiga ko‘ra ularning jinsiy tafovutlarini ifoda etish uchun ham xizmat qiladi. Masalan, *biya*, *baytal*, *bo‘z baytal* singarilar urg‘ochi otlarni; *bedov*, *arg‘umoq*, *tulpor* singari sifatdoshlariga ega bo‘lgan otlar yuqorida qayd etib o‘tilganidek, chopqir, yugurik bo‘lishi bilan bir qatorda, jinsli otlarni ham ifoda etadi. Bu o‘rinda teng qiymatli ikki til birligining o‘ziga xos belgi-xususiyatlari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilishi ziddiyati tushuniladi. Bu ziddiyatdagi til birliklaridan biri «urg‘ochilik», ikkinchisi esa «erkaklik» belgisiga ega.²⁶

1.3. Yoshiga ko‘ra tasnifi.

Bulardan tashqari, dostonlardagi ot nomlari ma’lum bir leksik paradigmalarda o‘zaro mazmun o‘xshashliklari va farqlari asosida muayyan qatorlarga, guruhlariga birlashishi ham mumkin. Masalan, ularning yoshini ifoda etadigan darajalanish qatori ham shular jumlasiga kiradi: *qulun*, *toy*, *g‘o‘nan*, *do‘nan* kabi.

G‘o‘nan - ikki yoshli toy; mo‘g‘ul tilida uch yoshli ho‘kiz (g‘o‘//du) yoki har qanday erkak hayvon. O‘TILda **g‘o‘non** – ikki yashar ayg‘ir yoki qo‘chqor tarzida izohlangan (O‘TIL, V, 464).

²⁶ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.16.

Do‘nan - to‘rt yoshli ot, shuningdek, to‘rt yoshga kirgan har qanday uy hayvoni. (Radlov, 1242, III) O‘TILda **do‘non** (mo‘g‘ulcha – to‘rt yoshli ot). 1. Uch yoshga to‘lib, to‘rt yoshga o‘tgan ot yoki tuya. 2. Ikki yoshga to‘lib, uch yoshga qadam qo‘ygan qo‘y yoki echki (O‘TIL, I, 675) tarzida izohlangan.

Qulun - bir bahorni ko‘rgan toycha. Shuningdek, bir yoshga kirgan ot. (O‘TIL, V, 374)

Bulardan tashqari, *to‘bichoq*, *toy*, *toyloq* singari so‘zlar ham otlarning yoshiga ishora sifatida qo‘llaniladi. Masalan, O‘TELda **toy** – otning ikki yashardan kichik bolasi tarzida qo‘llangan bo‘lsa (344), qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu ot asli **tay** tarzi talaffuz qilinganligi «Devon»dan ma‘lum (DLT, III, 173).

1.4. Rang-tusiga ko‘ra tasnifi.

Ba‘zi o‘rinlarda otlarning rang-tuslari ham ularni o‘zaro farqlashga xizmat qilgan. Masalan, dostonlarda uchraydigan qo‘yidagi nomlar bu fikrning dalilidir: **Chovkar** - terisi dog‘li, ola-bula ot²⁷.

Bo‘z ot, bo‘z - qadimgi turkiy manbalarda oq va qizil orasidagi rangda bo‘lgan rangi har qanday hayvonlarga nisbatan qo‘llanilgan. Shuningdek, bo‘z so‘zi kulrang ma‘nosini ham ifoda etadi. (DLT, III, 134).

To‘riq - jigarrang, qo‘ng‘ir tusli ot (Radlov, III, 1778). Masalaning mana shu jihatlari yuqorida ta‘kidlaganimizdek, B.To‘ychiboyevning ishlarida ham keltirilgan: «Umumxalq tilida «**Saman**» so‘zi sariq otga, «**olapocha**» oyog‘i ola, «**shapaq**» gavdasi to‘riq, manglayi to‘liq oq, «**chibor**» so‘zi butun gavdasida taram-taram oq va ko‘k xolli otga nisbatan qo‘llaniladi.²⁸

1.5.Shakl ko‘rinishi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra tasnifi.

Ot nomlarining o‘rtasida ularning shakl ko‘rinishlarini ifoda etuvchi so‘zlar ham anchagina uchraydi. Xususan, so‘poq ot, to‘bichoq singari ot nomlari shular jumlasidandir.

²⁷ Узбекского-русский словарь. – Москва, 1959.

²⁸Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – В.34-42.

To‘bichoq - eski o‘zbek tilida yumaloq, lo‘nda ma’nosini ifodalagan holda, semiz, yosh otga nisbatan ham qo‘llangan (Radlov, III, 1230).

So‘poq - Hodi Zarifning izohiga ko‘ra gavdasi cho‘ziq, baland ot shunday atalgan (III, 467).

1.6. Otlarning atoqli laqablari.

Qadimgi turkiy xalqlarning uzoq asrlik an‘analaridan dalolat beruvchi faktlar dostonlarda ot laqablari misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki ot nomlari turkiy xalqlarning ilk yozma manbalari hisoblangan “O‘rxun-Enasoy” yozma obidalarida ham semantik jihatdan dostonlar bilan mushtaraklik kasb etishi buning yaqqol dalilidir. Masalan, Kul tigin bitiktoshida **“Bashg‘u bo‘z”** (109), **“Azman aq”** (110), **“O‘gsuz aq”**(109)²⁹ (Kul Tigin *Bashg‘u* nomli bo‘z otni minib hujum qildi, 109) kabi ot laqablari ma’no jihatidan xalq dostonlarida uchraydigan **G‘irko‘k, Temirko‘k, Majnunko‘k, Shabg‘irko‘k** singari ot laqablari bilan umumiylik kasb etishi shular jumlasidandir. Chunki Bashg‘u bo‘z - boshi oq bo‘z rangli ot; O‘gsuz aq - yetim, onasiz qolgan oq tusli ot; Azman aq - oq tusli axta ot ma’nolari asosida otlarning rang-tusi yotgan bo‘lsa, dostonlarda ham G‘irko‘k - och malla, saman otni ifodalaydi (DLT, I, 319); Shabg‘irko‘k - shab (fors) tun, kecha va qir - qora tusli malla saman ot; Temirko‘k - temir tusli ko‘k ot kabi ma’nolarni ifoda etadi.

Ko‘rinadiki, bitigtoshlarda va dostonlarda ot laqablarining yuzaga kelishida otlarning rang-tusi asosiy o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlari tilida o‘z aksini topgan ot nomlari va boshqa zoonimlik nomlarining ko‘pchiligi tilimiz tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlab asrimiz boshlariga qadar bo‘lgan katta tarixiy davrda faol iste’mol qilib kelingan lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan boshqa leksik birliklar bilan bir qatorda, zoonimlarni leksik-semantik tahlili tarixiy lekskografiya, leksikologiya, til tarixi, etimologiya singari sohalarni chuqur o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

²⁹ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. — Тошкент: Ўқитувчи, 1982.

2.Xalq dostonlarida qush nomlari (ornitologik terminlar)

Xalq dostonlarida uchraydigan zoonimik nomlarining ikkinchi katta guruhini qush nomlari tashkil etadi. Tadqiqot manbamiz bo'lgan "Qunduz bilan Yulduz" dostonida jami qirqdan ziyod qush nomlari uchraydi. Qush nomlarini tekshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda yuzdan ortiq qush nomlarining etimologiyasi va leksik-semantik tahlili bayon etiladi.³⁰

Biroq dostonlar tilida uchraydigan qush nomlari va umuman, ornitonimlar maxsus o'rganilmagan.³¹ Vaholanki, dostonlar tilida, ayniqsa, Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodiga mansub dostonlarda turli tarixiy bosqichlarga va kelib chiqish tarixiga ko'ra turli tillarga mansub bo'lgan qush nomlari, shuningdek, boshqa zoonimik terminlarning xilma-xil turlari saqlangan. Bu leksik ma'lumotlar dostonlarning ijodiy shakllanish jarayoni va o'ziga xos taraqqiyot qonuniyatlarini, ajdodlarimizning tabiat va unda mavjud bo'lgan jonzotlarga munosabatlarini, qolaversa, ibtidoiy badiiy tafakkur xususida mavjud ma'lumotlarni boyitishda ahamiyati beqiyosdir.

Dostonlarda uchraydigan qush nomlarining yuzaga kelish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ornitonimlarning ma'nosida ularning rang-tuslari, xulq-atvorlari, shakl-shamoyillari, turli tovush chiqarishlari asos bo'lganligini ko'ramiz. Shu jihatdan doston matnidagi qush nomlarini izohlashda o'rni bilan "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", "Devonu lug'atit turk", "Zoologiya ensiklopediyasi" kabi lug'atlardan, shu bilan birga shu sohaga oid tadqiqotlardan foydalanib, ularning umumiy ma'nosini tahlil qilishga harakat

³⁰ Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). - Ташкент, 1978.; Ишбердин Э.Ф. Наименования птиц в башкирских говорах // «Вопросы башкирского языкознания». – Уфа, 1973.; Ф.Исхоков «Зарбулмасал»даги қуш номларига доир // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1973, №1. Б.46-50.; Носиров Ш. Диалектал орнитологияга оид кузатишлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1986, №5. Б.56-60; Yo'ldosheva D. O'zbek tilida ornitonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari haqida. – Samarqand, 2007.–105 b.

³¹ Орнитология. [юн. ornis, ornithos - қуш+ logos – фан, таълимот] Қушларни ўрганувчи соҳа// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.138.

qildik. To‘plangan materiallar asosida qush nomlarini quyidagi mavzuiy guruhlariga bo‘lib o‘rgandik.

2.1. Yirik yirtqich qushlar:

a) lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich qushlar: bahrin (337^{III}), itilgi // italg‘u (219^{III}), lochin (387^{III}), tuyg‘un (387^{III}), shunqor (315^{III});

b) qirg‘iysimonlar oilasiga mansub yirtqich qushlar: burgut (387^{III}), qarchig‘ay (219^{III}), qirg‘iy (212^{III}), g‘ajir (387^{III}) kabilar shular jumlasidandir.³²

Bu qush nomlarining yuzaga kelishida quyidagi xususiyatlari asos bo‘lgan:

1. **Qirg‘iy** - dostonlarda *qirg‘iy* // *qiyg‘ir* singari fonetik variantlari uchraydi:

Qirg‘iy degan qushlar bo‘lar qiyada,

Ne ko‘rib kechirdim foniylar dunyoda. (212 III);

Qiyg‘irning yuzaga kelishida uning sayrashlari, ya‘ni qir-qir yoki qiy-qir tovushga taqlid so‘zi asos bo‘lgan (Bazarova, 44). Mazkur qush nomi “Devonu lug‘otit turk” da “qirqiy” shaklida berilsa (DLT, 259^{III}), izohli lug‘atda “tumshug‘i katta va qayrilgan, asosan uncha yirik bo‘lmagan qush, parrandalarga ovga solinadigan sohibchanga yirtqich qush; qirg‘iy” (O‘TIL, V, 289,303) tarzida, O‘ZMEda “qarchig‘aysimonlar oilasiga mansub yirtqich qush” (252^{II}) deb izohlangan.

2. **Qarchig‘ay** – yirtqich qushlar turkumining qarchig‘aysimonlar oilasiga kiradi, qarchig‘ay chaqqon va uchqur qushlardan biri bo‘lib ov qushidir. Dostonda o‘xshatish vositasi sifatida uchraydi:

Qarchig‘ayday qimtilib,

Suvsiz cho‘lda boradi,

Uchar qushday qutilib (219^{III}).

Izohli lug‘atda “kalta qayrilma tumshuqli, tirnoqlari uzun va o‘tkir, ovga solinadigan yirtchiq qush” (O‘TIL, V, 253) deb izohlangan.

3. **Burgut** – O‘ZMEda “yirtqichlar turkumining qirg‘iylar oilasiga mansub yirtqich qush” (252²) deb berilgan bo‘lsa, izohli lug‘atda “qirg‘iysimonlar

³² Мисоллар “Булбул тароналари” асарининг 3-тоmidan оlinди.

(lochinsimonlar) oilasiga mansub katta yirtqich ovchi qush” (O‘TIL, I, 376) deb izohlangan. Dostonda quyidagicha uchraydi:

Xudo deydi qistaydi,
Och burgutday chraqillab (388^{III}).

4. **G‘ajir** – cho‘l burguti, burgut zotlaridan biri, rivoyatlarga ko‘ra ming yil yashaydigan, murdalar bilan oziqlanuvchi qush. Dostonda quyidagicha uchraydi:

G‘ajir – quzg‘un shuvullashib,
Ust-ustiga qo‘nib qoldi (397^{III}).

5. **Bahrin** – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. Mahalliy ovchilar uni oq yuzli lochin, shuningdek, bahrin deb ataydilar (O‘TIL, I,198). O‘ZMEda “tundra lochini, lochinlarning kenja turidan biri” (498¹) sifatida izohlangan. Dostonda quyidagicha uchraydi:

Chu deb Avaz qistaydi,
Och bahrinday charqillab (387^{III})

6. **Lochin** – oq va kul rangli ov qushi. Dostonlarda quyidagicha uchraydi:

Qistab yo‘lin oladi,
Och lochinday charillab (387^{III}).

7. **Itilgi** (219^{III}), italg‘u (34^{III}). Olg‘ir, yirtqich ov qushi. Dostonda quyidagicha uchraydi:

Itilgiday imtilib,
Uchar qushday qutilib, yoki,
Qarchig‘ayday qutilib,
Italg‘uday imtilib.

O‘TELda **itolg‘i** – lochinsimon yirtqich qush. Bu so‘z **it [ni] al** – birikmasiga –**g‘i** qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan sifat bo‘lib, asli itni ham changaliga oladigan ma’nosini bildirgan, keyin otga ko‘chgan (O‘TEL, 126).

8. **Shunqor** – yirtqich, yirik qushlardan. Mahmud Koshg‘ariyning izohlashicha, bu to‘g‘ril degan yirtqich qushdan kichikroqdir (DLT, 392^{III}). O‘TELda lochinsimonlar oilasiga mansub kuchli yirtqich qush ekanligi, qadimgi

turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot *so'nqur, shunqar* tarzida talaffuz qilinganligi va asli qadimgi turkiy tilda «quv», «iziga tush» ma'nosini anglatgan *so'ng* fe'lidan – qur qo'shimchasi bilan yasalgan deb taxmin qilinadi.

Dostonda:

Sensiz mening yo'qdir sabru qarorim;

O'zimga munostib olg'ir shunqorim (315^{III}).

9. **Tuyg'un** – bu qush ham yirtqich qushlar qatoriga kiradi. Qadimgi manbalarda oq shunqor deb izohlanadi. Dostonda:

Suvsiz cho'lda Bol Avaz,

Och tuyg'unday charqillab (387^{III}).

Ko'rinadiki, dostonlarda yirtqich qushlarning xilma-xil nomlari ko'p uchraydi. Ular ajdodlarning tabiatda mavjud bo'lgan yirtqich qushlarni xatti-harakatlarini, rang-tuslarini o'ta sinchkovlik bilan kuzatgan holda obrazlarning turlicha holatlarini, harakatlarini doston tinglovchilar ko'z o'ngida gavdalantirish uchun dostonlarda qo'llagan. Shu jihatdan bu qush nomlari dostonlarda uslubiy qimmatga ham egadir.

Shu bilan birga dostonlarda mazmunan ijobiylikka ega bo'lgan ko'rinishiga ko'ra go'zal, chiroyli qushlar ham uchraydi. Bu qush nomlari shakl va ko'rinishiga ko'ra bir qator kichik va chiroyli qushlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra ularni kichik va chiroyli qushlar sifatida alohida guruhlashtirishni lozim topdik.

2.2. Nisbatan kichik va ko'rinishiga ko'ra chiroyli qushlar.

Bu qushlar o'z navbatida quyidagi xususiyatlariga ko'ra farqlanadi:

a) Sayroqi qushlar: bulbul (222^{III}), to'ti (222^{III}), to'rg'ay yoki so'pito'rg'ay (222^{III}), g'azalay (222^{III});

b) Chiroyli qushlar: to'vus (383^{III}), suqsur (228^{III}), so'na (203^{III}), laylak (406^{III}), g'oz (376^{III}), turna (276^{III}), kaptar (300^{III});

v) Shakllan mayda qushlar: cho'ponallovuch (222^{III}), sarg'altoq (222^{III}), zinqarcha (222^{III}), musicha (222^{III}), puchchakalon (222^{III}), pismaqush (222^{III}), paxtak (222^{III});

g) Xatti-harakatiga ko‘ra salbiy bo‘yoq ifodalovchi qushlar: qarg‘a (222^{III}), olaqarg‘a (222^{III}), zaxcha (222^{III}), quzg‘un (277^{III}), mayna (222^{III}), olahakka (222^{III}) kabilar shular jumlasidandir.

Bu qush nomlarining ham ko‘pchiligi ma’no jihatdan manbalarda quyidagicha izohlangan:

1. Bulbul – forscha – tojikcha so‘z bo‘lib chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush (O‘TIL, I, 369). Dostonda o‘z ma’nosida ham:

Ochilibdi qizil gul,
Shohida sayrabdi *bulbul* (222^{III})

Ko‘chma ma’noda qo‘llangan:

Tillari *bulbul*, Qunduzim,
Sochlari sunbul, Qunduzim (423^{III}).

2. To‘ti – (forscha-tojikcha) tropik o‘rmonlarda yashaydigan chiroyli, rang-barang patli qush (O‘TIL, IV, 248).

Bu qush nomi dostonda aksariyat o‘rinlarda o‘z ma’nosida uchraydi:

... *To‘ti* maynaga qarab dam tortib, charx urib turibdi (222^{III}).

3. To‘rag‘ay // so‘pito‘rg‘ay – chumchuqsimonlar turkumining bir oilasiga mansub kichik sayroq qush (O‘TIL, IV, 246).

Bu qush nomiga so‘pi so‘zining qo‘shilib kelishi, nazarimizda, erta tongda sayrash xususiyati bilan bog‘liqdir. Dostonda asosan o‘z ma’nosida uchraydi:

... *so‘pito‘rg‘ay*, g‘azalay... laylakni sozanda qilib qaqirlatib, Po‘lkanday qilib aytdirib yotibdi (222^{III}).

Ko‘rinadiki, yuqorida sanab o‘tilgan sayroqi qushlarning aksariyati hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda keng qo‘llanilib kelinayotgan ornitonimlardir. Yuqorida qayd etilgan tasnifimizga mansub tovus, laylak, g‘oz, turna, kaptar, musicha, qarg‘a, olaqarg‘a, zaxcha, olahakka singari qush nomlari ham hozirgi tilimizda keng qo‘llanib kelinayotgan ana shunday so‘zlardandir.

Shuningdek, dostonlarda hozirgi adabiy tilimizda kam uchraydigan yoki umuman uchramaydigan arxaik qush nomlari ham mavjud. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. **Cho‘ponallovuch** – prof. Hodi Zarifning izohlashicha, bu qush nomi cho‘pon, aldovchi so‘zlari birligidan iborat bo‘lib, *chittak*, *cho‘rtakkal* singari qushlar turiga mansub.

2. **Sarg‘altoq** – bu so‘zning hozirgi tilimizda *zarg‘aldoq* shakli uchraydi. Chumchuqsimon qushlarning bir turi, qanotlari qoramtir, gavdasi sariq, sayroqi qush (O‘TIL, II, 140).

3. **Zinqarcha** – bizningcha, ushbu so‘z so‘zlashuv tilidagi zing‘ircha so‘zi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Mazkur so‘z bir ko‘rib chiqqan lug‘atlarda uchramaydi. Shevalar lug‘atida zing‘ircha kichik, zig‘irdek ma’nosida uchraydi. Shunga ko‘ra mazkur qush nomi hajman kichik qush bo‘lishi kerak. O‘TILda shevaga xos *jinqarcha* so‘zining varianti sifatida tilga olinadi (O‘TIL, II, 152).

4. **Puchchakalon** – Hodi Zarifning ta’kidlashicha, bu qush *chittak*, *chumchuqdan* kichkina qush bo‘lib *cho‘rtakkal* nomi bilan ham yuritiladi. Biz ko‘rib chiqqan maxsus zoologik lug‘atlarda uchramaydi.

5. **Pismaqush** – O‘TILda va boshqa lug‘atlarda uchramaydi. Lekin ba’zi bir zoologik qo‘llanmalarda izohlanishicha, *pismacha* // *pismachi* // *pismaqush* singari fonetik shakllari uchraydi. Shuningdek, bu qush “tentakqush”, “bejog‘im” kabi sinonimik nomlar bilan ham yuritiladi. Bu qush tungi qushdir. Tunda zararli hasharotlarni, chivin, pashsha kabi hasharotlar bilan oziqlanib, kunduzi yashirinib yotadi.³³

6. **Paxtak** – faxta, qumri; kaphtarlar turkumiga kiradi. Bu qush uyasini daraxt va butalarga quradi. Qumri ham musichaga o‘xshash har xil to‘kilgan don va urug‘lar bilan ovqatlanadi (Qushlar, 26).

7. **Suqsur** – o‘rdaklar oilasiga mansub, yovvoyi o‘rdakdan kichikroq qush (O‘TIL, III, 604). *Suqsur* – g‘ozsimonlar turkumining o‘rdaklar kichik oilasiga

³³ Зоҳидов Т.З. Зоология энциклопедияси. Қушлар. – Тошкент, 1957. – Б. 47.

kiradi. Suqsur keng tarqalgan va ko‘p uchraydigan o‘rdaklardan biri (Qushlar, 147). Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida suqsur – “suqtur” tarzida ham uchraydi.³⁴

So‘na – A.Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida qayd etilishicha, fors-tojik (sart) tilida uchraydigan o‘rdak turlaridan biri, ya’ni erkak o‘rdak “so‘na” deb nomlanadi. Urg‘ochisi esa “bo‘rchin” deyiladi (ML, XIV, 115). Bu o‘rdak zotini ifodalovchi so‘z biz ko‘rib chiqqan lug‘atlarda uchrmadi.

Xullas, Ergash Jumanbulbul ijodiga mansub “Qunduz bilan Yulduz” dostonida uchraydigan qush nomlari o‘rtasida iste’mol doirasiga ko‘ra dialektal hamda tarixiy xususiyat kasb etuvchi nomlar ham anchagina uchraydi. Bu qush nomlarining ko‘pchiligidan shoir uslubiy maqsadlarda keng foydalangan. (Bu haqda ishning ikkinchi bobida alohida to‘xtalamiz).

3.Hayvon nomlari.

Xalq dostonlarida qayd etib o‘tilgan qush va ot nomlaridan tashqari ko‘pgina boshqa hayvon nomlari ham uchraydi. Bu nomlar o‘zining ma’no munosabatiga ko‘ra quyidagicha guruhlarini tashkil qiladi.

3.1. Uy hayvonlari nomlari.

Uloq (332, III), so‘qim (334, III), do‘nan (336, III), qo‘zi (268, III), taka (338, III), g‘o‘nan (338, III), sherboz (317, III), qo‘chqor (217, III), qo‘y (300, III) singari qo‘y va echkichilikka oid terminlar; tuya (408, III), tayloq (404, III), biya-bo‘taloq ma’nosida (334, III), nor (369, III), bo‘ta (384 III), moya (80, III), luk (323,III) singari tuyachilikka oid terminlar; kuchuk (183, III), ko‘ppak (114, III), qanjliq (324, III), sak (121, III) singari it turlarini ifodalovchi so‘zlar; govvoz (184, III), molashoh (399, III), poda (57, III), sigir (183, III), ho‘kiz (324, III) singari qoramolchilikka oid so‘zlar shular jumlasidandir.

³⁴ Навоий асарлари. 14-том. – Тошкент, 1967. –Б. 115.

Bular o'rtasida hozirgi tilimiz nuqtayi nazaridan passiv yoki iste'mol doirasi chegaralanganligiga ko'ra farqlanuvchi quyidagi leksik birliklar alohida diqqatga sazovordir:

Do'nan - ikki yoshdagi har qanday hayvonga nisbatan qo'llanuvchi termin. Dostonda ikki yasharli echki ma'nosida qo'llaniladi:

Do'nan semiz taka tashlab
Oshirganlar taqim tashlab,
Bir xillar qoldi yonboshlab (336, III).

G'o'nan - uch yosharli ot, qo'y va echkilarga ishlatiladigan termin. Dostonda quyidagicha qo'llangan:

G'o'nan, do'nan, semiz taka,
Ko'ziga qaramay otdi (338, III).

Uloq - echkining bir bahorini ko'rgan bolasiga nisbatan qo'llaniladi. Dostonda mazkur so'z echki bolasi va ko'pkari ma'nosida uchraydi:

Ana endi podsho to'yni boshlab...
Uch yuz uloqni ko'pgariga tashlab (332, III) yoki
Necha epchil chavandozlar,
Tushurmasdan ilib olib,
Nechovi uloq olayotir (351, III).

Xalq tilida qo'y, echki, ularning turlari va bolalarining umumlashtiruvchi nomi «**jonliq**» bo'lib, ularning har bir turining o'z nomi bor. Xalq tilida **qo'y** atamasi ham umumlashtiruvchi ma'noni ifodalashi bilan birga, jinsiy tafovutni bildiruvchi so'z sifatida qo'llaniladi. Bu jihatdan xalqimizning amaldagi jonli tili o'zbek adabiy tili va umumturk tilidan deyarli farq qilmaydi. Darhaqiqat, qo'y so'zi o'zbek adabiy tilida ham, boshqa turkiy tillar, chunonchi, qozoq, qoraqalpoq, uyg'ur, qirg'iz tillarida ham xuddi shu ma'noda ishlatiladi. Turkiy tillar tarixida bu

soʻz qadimdan isteʼmolda boʻlib, bugunga ayrim fonetik jarayon asosida yetib kelgan. Boshqacha aytganda, *d-z-y* fonetik jarayoni yuz bergan.³⁵

Sovliq – uch yoshdan oshgan bolali qoʻy yoki bir necha marotaba qoʻzilagan qoʻyga ishlatiladi (OʻTIL, III, 539). Bu soʻzning etimologiyasi **sogʻ//soq** feʼliga borib taqalib, bu xalq chorvachilik, eliboylik bilan shugʻullanib, qoʻzilagan qoʻyni soqqan (DLT, II, 22). **Sogʻ** – yelindan sutni chiqarib ol. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatuvchi bu feʼl **sagʻ** tarzida talaffuz qilingan (OʻTEL, 300).

Umumxalq tilida hanuz qoʻy nomlari jinsiga, yoshiga, rangi-tusiga qarab farqlanadi. Yaʼni tilda ularning har birining oʻz nomi bor.

Qoʻchqor - ikki yoshdan oshgan bichilmagan erkak qoʻy. Bu soʻz turkiy tillar tarixida qadimdan ishlatilib, M.Koshgʻariy uning *chynar*, *koʻchynar* shakllarida ishlatilgan oʻgʻuzcha soʻz ekanligini taʼkidlaydi (DLT, I, 311). Shuningdek, umumxalq tilida **pichma** atamasi bichilgan erkak qoʻyga nisbatan ishlatilsa, **ishshak** atamasi ikki yashar qoʻyga nisbatan ishlatiladi. turkiy tillar tarixida **qoʻzu**, **qoʻzi** (DLT, III, 224) tarzida qoʻllangan atama hozir umumxalq tilida **qoʻzi** shaklida ishlatilib kelinadi. Bu oʻrinda shuni alohida qayd etish lozimki, turkiy tillarning ayrimlarida xuddi hozirgi umumxalq tillaridagidek oxirgi unli lablanmagan tarzda bu soʻz **qoʻzoʻ** shaklida ishlatilsa, ayrimlarida til tarixidagi ikkinchi shakl, yaʼni soʻzning oxiridagi unlining lablangan koʻrinishi ham isteʼmol qilinadi.³⁶ **Echki**, **sarka**, **taka**, **uloq** atamaları haqida ham yuqoridagi tadqiqotda qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, **echki** qadimgi turkiy va eski oʻzbek tilida **echki**, **kechi** nomlari bilan qoʻllanilib, umummaʼnoni ifodalovchi soʻz boʻlgan. **Uloq** – echkining olti oygacha boʻlgan bolasi. **Sarka** – umumxalq tilida bichilgan bir yoshdan oshgan echki bolasiga nisbatan qoʻllanilsa, **taka** – xalq tilida bir yoshdan oshgan bichilmagan echki bolasiga nisbatan ishlatiladi.³⁷

Nor - erkak tuyaga nisbatan ishlatiladi. Dostonda quydagicha qoʻllanilgan: Katta-katta nor tuyalar yoʻlga qatorlashayotir, qullar yoʻlga tushayotir, balki bu

³⁵ Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 62.

³⁶ Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили. - Т: Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.49.

³⁷ Юкоридаги асар. – Б. 42-54.

yog‘i jo‘nashayotir. (369, III) Xalqimizda «*Qatorda noring bo‘lsa, yuking yerda qolmaydi*» maqoli ham eng faol qo‘llaniladigan umumtil birliklaridan biridir. Ya‘ni «Chinakam do‘stlaring, yor-birodarlaring bo‘lsa, hayotda qiynalmaysan, ular senga har tomonlama ko‘maklashadilar, qo‘llab-quvvatlaydilar, mushkulingni oson qiladilar» mazmunida qo‘llanuvchi mazkur maqolning «*Nori bor, nori borning moli bor*», «*Nor yo‘lida yuk qolmas*», «*Qush qanoti bilan, Er oti bilan*», «*Qush qanoti bilan uchadi, Quyrug‘i bilan tushadi*», «*Yuk og‘irini nor ko‘tarar, Dard og‘irini er*» kabi bir qator varintlari mavjud. Bulardan anglashiladigan umumiy xulosa shuki, kishiga hayot kechirishda, mushkul ishlarni bajarishda yaqinlari asqotadi va ko‘maklashadi. O‘zi aslida og‘ir yukni nor tuya ko‘taradi. Bu tugal fikr dastlab o‘z ma‘nosida qo‘llanilib, keyinchalik metaforik ma‘no asosida ko‘chma ma‘noda qo‘llanila boshlagan va davrlar o‘tishi bilan hikmatli so‘zga aylangan. Doston matnida bu maqol bir necha shakllarda kelib, qahramonlarning nor tuyaga o‘xshash xislatlarini majoziy ma‘noda ifodalashga xizmat qilgan.

Moya - urg‘ochi tuyaga nisbatan qo‘llaniladi. Dostonda qo‘yidagicha qo‘llanilgan:

Savdogarlar yuradi moyali-norli

Bozirgon savdosi kumushli-zarli...(80, III).

Lo‘k - og‘ir yuk ko‘tara oladigan har qanday jinsdagi tuya. Dostonda qo‘yidagicha qo‘llanilgan:

Mard yigit dushmandan olar kekini,

Savdogar tirkaydi norman lo‘kini (323, III).

Bulardan tashqari yuqorida sanab o‘tilgan uy hayvonlari ichida **moloshoh** - yirik qoramol, **poda** - bu o‘rinda qora mollarning umumiy nomi:

Go‘ro‘g‘li boylarning ustiga kelib jam‘i mollarini – *yilqi, tuya, podasini* quvib ketmasin, sizlar miltiqni o‘qlab, o‘zlaringni choqlab, mening tuzimni haqlab, hozir bo‘linglar, - deb qo‘yib edi. (III, 57)

Shu o'rinda chorva ma'nosida umumlashtiruvchi so'z sifatida mol ham qo'llaniladi: U yigitlar shu mol bo'lsa bir boshidan oshirib hayday beramiz-da... (57, III).

Ayni paytda uy hayvonlarini ifodalovchi zoonimlar etimologik jihatdan qo'yidagi tillarga mansubligi bilan farqlanadi:

Umumturkiy Zoonimlar	Fors-tojik va arabcha zoonimlar
Uloq	Sherboz
So'qim	Moya
Do'nan	Ko'ppak
Qo'zi	Sak
Taka	Gavvoz
G'o'nan	Maymun
Nor	Sher
Qo'y	Fil
Qo'chqor	Qoplon
Biya	Nahang
Bo'ta	Govmish
Lo'k	Tozi
Kuchuk	G'azol (ohu)

3.2.Yovvoyi hayvonlar.

Bu guruhga mansub zoonimlar dostonlarda uchraydigan qo'yidagi hayvon nomlarini o'z ichiga oladi:

a) **Yirtqich hayvonlar:** yo'lbars (360, III), sher (362, III), bo'ri (347, III);

b) Hashorat va sudraluvchi hayvonlar: ilon (294, III), sulik (zuluk 294, III), echkemar (252, III), ochbaqa (252, III), qurbaqa (251, III), toshbaqa (251, III), qashqa chivin (255, III), bit (261,III), qurt (261, III) kabilar shular jumlasidandir.

Shu narsa xarakterliki, bu guruhga mansub nomlarning aksariyati dostonlarda, asosan, salbiy munosabatlarni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi. Bular orasida yirtqich hayvonlarga xos nomlar esa dostonlarda kuch-qudrat, mag'rurlik, jasorat kabi ijobiy xususiyatlarni ifodalaydi.

Xullas, xalq dostonlarida uchraydigan bir yuz oltmishdan ziyod hayvon nomlari nomlari ajdodlarimizning tabiat va tabiatda mavjud bo'lgan jonzotlarga turlicha munosabatlari tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan bir qatorda dostonlarda sanab o'tilgan zoonimlarning tilimiz tarixining turli bosqichlariga mansubligi, boshqa lug'aviy birliklar singari avloddan-avlodga o'tib bizgacha yetib kelgan epik asarlarning tarixiy evolyutsiyasini tasavvur etishda ham muhim dalil hisoblanadi.

Dostonlardagi zoonimlarning leksik-semantik tahlili jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, ularda uchraydigan ot nomlari, qush nomlari o'rtasida hozirgi kunda iste'moldan chiqib ketgan arxiak leksik birliklar anchagina miqdorni tashkil etadi. Demak, ularning ma'lum bir qismini xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'rganish va tahlil qilish tilimiz tarixi uchun ham qimmatli ma'lumotlar bera oladi.

II. BOB

DOSTON MATNIDAGI ZOOMORFIZMLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

2.1. Zoonimlarga xoslangan emotsional bo‘yoqdorlik.

Ma’lumki, tilning asosiy va birlamchi funksiyasi kommunikativ funksiyadir. Biroq kishilar kommunikatsiya jarayonida faqat fikr almashinish bilangina cheklanib qolmay, borliq voqea-hodisalarga o‘z munosabatlarini ifodalashga ham intiladilar.

Inson borliq hodisalarini idrok qilar ekan, bu hodisalar qaysidir jihatlari bilan o‘zlariga nisbatan unda turli emotsiya (his-tuyg‘u)lar qo‘zg‘atadi. Bu hol, albatta, tilda o‘z ifodasini topmay qolmaydi, chunki «Til borliq tilidir».³⁸

Darhaqiqat, lug‘at tarkibidagi so‘zlarni kuzatish ularning ba’zilar biror narsa, hodisalarni atabgina qolmay, ayni paytda so‘zlovchining ifodalanayotgan tushunchaga o‘z bahosini, munosabatni ifodalashini ham ko‘rsatadi. Bu munosabat doirasiga g‘azab, erkalash, qoyil qolish, nafratlanish, kinoya kabi xilma-xil emotsional munosabat ko‘rinishlari kiradi.

Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo‘lgan leksika emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor leksika, ekspressiv-stilistika terminlari ostida o‘rganiladi. Bunday atash, umuman olganda, obyektiv haqiqatga mos keladi, chunki bu xil atamalar bu til leksikasining eng muhim jihatini emotsional-ekspressiv baho elementiga ega ekanligini nazarda tutadi.

Hozirgi tilshunoslik fani tilning fikr almashuv quroligina bo‘lib qolmay, emotsiyalar ifodalash qobiliyatiga ham ega ekanligini tan oladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, adabiy til lug‘at sostavidagi barcha so‘zlar til birligi sifatida ijobiydir, chunki ular ma’lum tushunchalar anglatishga xizmat qiladi. So‘zlar

³⁸ Ўзбек тили лексикологиси. — Тошкент: ФАН, 1981. —Б.159-160.

ifodalagan tushunchalarning qanday (ijobiy yoki salbiy) baholanishi esa, butunlay boshqa hodisa bo'lib, keng ma'noda so'z anglatgan predmet, belgi va hodisaning baholanishi demakdir.³⁹

Insoniyat azal-azaldan borliqdagi hayvonlar va jonivorlar bilan juda yaqin munosabatda bo'lgan. Buning muayyan sabablari bor: birinchidan, hayvonot olami insonlar uchun asosiy ozuqa manbaidan biri bo'lsa, ikkinchidan, ular kundalik hayotda yordamchi ish kuchi vazifasini bajargan va uchinchidan, ov qilishda asosiy vosita hisoblangan. Ayni holat insonlarning hayvonot olami sir-asrorlarini azaldan yaxshi bilib olishga, uy hayvonlarini o'zlariga yaqin tutishiga, ularning ko'magidan samarali foydalanishga yoki yovvoyi hayvonlarga nisbatan jiddiy mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga, umuman, ularga alohida e'tibor bilan qarashga olib kelgan. Shu bois xalq baxshisi dostonlarning badiiyatini yanada kuchaytirish, syujet bayonini qiziqarli va tinglovchilar diqqatini jalb etish maqsadida *sher, tuya, bo'ri, bo'ta, ilon, lochin, kaptar, tarlon, qarchig'ay, tulki, to'rg'ay, uloq, ot, qarg'a, bulbul, tozi, jonivor* kabi uy va yovvoyi hayvonlar, har xil qushlar va jonivorlar nomlaridan badiiy-tasviriy ifoda vositasi sifatida foydalangan. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, ularning har biri matnda muayyan uslubiy vosita vazifasini bajargan.⁴⁰

Ma'lumki, insonlarning o'xshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning o'sishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalarning vujudga kelishida avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinot olamini bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi ojizliklar tufayli ularga nisbatan sirli va ilohiy kuch sifatida baho berish, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy e'tiqod xilma-xilliklari hayvonot, nabotot va koinot olamidagi mavjud narsalarga,

³⁹ Юқоридаги асар. – Б. 161.

⁴⁰ Жуманазарова Г.Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. – Б.15-16.

jonzotlarga nisbatan totemistik munosabatlar tufayli sher, arslon, yo‘lbars, qoplon va burgut, lochin, qirg‘iylarni - mard, jasur, botir, dovyurak kishilarga; qarg‘a, quzg‘unlarni - qonxo‘r, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullarni - go‘zal, chiroyli xulqli kishilarga; gul, g‘uncha va oy, yulduz, quyosh singarilarini go‘zal va suluv qizlarga; yantoq, saksovul kabilarni xunuk kishilarga nisbatat tashbeh etilishi og‘zaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir.

Bularning barchasi insoniyat o‘zini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bog‘lashi, ya’ni, qiyoslashi, o‘xshatishi, sifatlashi kabilar bilan bog‘liq bo‘lib, ular tilimizdagi ko‘plab badiiy ifoda vositalarning vujudga kelishida asos bo‘ladi.

Xalq dostonlari tilida, xususan, Ergash shoir dostonlari tilida uchraydigan badiiy ifoda vositalarining aksariyat qismini yuqorida aytib o‘tilgan kabi ibtidoiy tasavvurlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan yashirin o‘xshatish, ya’ni metaforalar, ochiq o‘xshatish, sifatlash (epitet)lar tashkil etadi. Ayni paytda bu ifoda vositalari o‘zbek va turkiy epik asarlar tilida ham, dostonlararo keng qo‘llanilishiga ko‘ra ham epik klishelar, uslubiy formulalar va boshqa vositalar singari mushtaraklik kasb etadi. Tadqiqot manbalarimiz va turkiy dostonlarning yagona epik sistemaga birlashgan holda uzoq asrlar davomida taraqqiy etishdan dalolat beruvchi bunday badiiy ifoda vositalarining qo‘llanishi ham diqqatga sazovordir.

Biz o‘rganayotgan malakaviy bitiruv ishimiz, xususan, “Qunduz bilan Yulduz” dostoni matnida ham emotsional-ekspressiv buyoqdorlikni yuzaga keltiruvchi metaforik ma’no yaqqol o‘z ifodasini topgan.

Tilda nominativ ma’noda stilistik bo‘yoqdan xoli bo‘lgan, ko‘chma ma’noda esa yorqin emotsional - ekspressiv bo‘yoq kasb etuvchi juda ko‘p so‘zlar mavjud. Metafora ana shunday bo‘yoq hosil qiluvchi vositalardan hisoblanadi.

Ma’lumki, metafora - grekcha so‘z bo‘lib, ko‘chim degan ma’noni bildiradi. Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasidagi

o'xshashlikka asoslanib so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir.

Metaforani yashirin o'xshatish ham deyish mumkin, asosan biror narsa yoki hodisa boshqasi bilan qiyos qilinadi. Lekin o'xshatishdan - metafora faqatgina bir a'zoda (o'xshatilgan va o'xshatiladigan) tashkil topganligi, ya'ni unga o'xshatilgan narsa qoladiy-u, o'xshagan narsa tushirib qoldirishi bilan farqlanadi.⁴¹

Demak, ma'noning o'xshashlik jarayoni asosida ko'chishi metaforaning muhim belgisini tashkil etadi. Biroq predmetlar yoki hodisalar orasidagi tashqi o'xshashlik asosida ko'chirilgan ma'nolar (tog'ning beli, dutorning bo'yni, buloqning ko'zi) bilan predmet (keng ma'noda) va uning harakati nomlarining insonga nisbatan, uning tabiati va harakati belgilarini xarakterlariga mo'ljallab ishlatilishi (eshak, it, to'ng'iz, qo'chqor, qo'zichoq, bo'taloq, ilon, chayon, yo'lbars, sher, lochin, bulbul, akillamoq, vaqillamoq, sayramoq kabi so'zlarni metaforik) qo'llanishi natijasida hosil bo'luvchi ma'nolar orasida katta farq bor.

Birinchi holda so'zning metaforik qo'llanishi borliq hodisalarining ma'lum bir tashqi belgi, xususiyatlarini obrazli anglatish orqali taqozosi bilan sodir bo'lgan. Obrazlilik esa har qanday metaforik qo'llashga xosdir.

Ikkinchi holda esa metaforik qo'llangan so'z nutq subyekti (so'zlovchi)ning nutq obyekti (bunda: shaxs va uning harakati)ga nisbatan yorqin subyektiv emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalaydi.⁴²

Dostonlarning tarixiy ildizlaridan dalolat beruvchi muhim lingvistik dalillarning kattagina qismi qahramonlar obrazini yashirin o'xshatish orqali tavsiflovchi leksik birliklardan iborat.

Xususan, dostonlarda, qadimgi turkiy manbalarda va boshqa badiiy manbalarda bo'lgani kabi qahramonlar xatti-harakatlari, holatlari, tashqi va ichki qiyofasini gavdalantirishda, ularning tengsiz kuch-qudrat sohiblari ekanliklarini obrazli ifodalashda tematik jihatdan xilma-xil bo'lgan leksik birliklardan keng

⁴¹ Кўнгулов Р., Бегматов Э., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1992. – Б.100.

⁴² Ўзбек тили лексикологиси. – Тошкент: Фан, 1981. –Б. 164.

foydalaniladi. Dostonlarda, ayniqsa, zoonim nomlarining yashirin o'xshatish asosida qo'llanishi keng tarqalgan bo'lib, ular mazmun va mohiyatiga ko'ra qadimgi turkiy yozma manbalarda uchraydigan bu tipdagi badiiy ifoda vositalari bilan mushtaraklik kasb etadi. Bu esa, yuqorida aytib o'tilgan kabi, dostonlarning ibtidoiy va ilk feodal og'zaki ijodi bilan aloqadorligini yana bir karra tasdiqlaydi. Zero, bizgacha yetib kelgan yozma manbalarning guvohlik berishicha, zoonimlar turkiy xalqlar turmushida va badiiy ijodida metaforik qo'llanilishi tufayli shaxsning tengsiz kuch-qudratini, jasoratini ifodalovchi vosita bo'lishi bilan bir qatorda, shaxs ismlari, ismlarga qo'shilgan holda ijtimoiy mavqe bildiruvchi belgi sifatida ham keng qo'llangan.

2.2. Zoomorfizmlarning metaforik xususiyatlari.

O'zbek tilida metaforik qo'llanish natijasida emotsional-ekspressiv ma'no hosil qiluvchi juda ko'p so'zlar bor. Bular orasida zoomorfizmlar (epik qahramonlarning timsolini xalq baxshisining badiiy-poetik ifodalash maqsadida uy va yovvoyi hayvonlar, parrandalar, hashorotlar nomlarini metaforik ma'noda qo'llash) alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishdagi so'zlarni dostonlar matnida qo'llanilishiga va lisoniy xususiyatlariga ko'ra, qo'yigagi mavzuiy guruhlariga birlashtirilishi mumkin.

1. Yirtqich, yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi so'zlar: *bo'ri, sirtlon, tulki, sher, yulbars, to'ng'iz, ayiq, fil* va boshqalar.

Bunday so'zlar doston matnida xalq baxshisining ijro jarayondagi bayonga mos yoki epik qahramon nutqida metaforik ma'noni ifodalashi orqali hosil qilingan:

Polvon Avaz *sherd*ay bo'lib,
Ish ishladi erday bo'lib,
Qalmoq qoldi yerday bo'lib,
Og'zi ochilib go'rday bo'lib,
Urushdan chiqdi Bol Avaz
Chilladagi *nord*ay bo'lib. (III, 398)

Anda Avazxonning qahri kelib, yilonday zahri kelib, ajdahorday to'lg'anib, *sherday* chopinib, *yo'lbarsday* chirpinib, nima deysan deb, pariga qarab bir so'z deb turibdi (III, 213) kabi. Matndagi tagiga chizilgan so'zlarning hammasida qiyoslash-o'xshatish usuli orqali metaforik ma'no hosil qilingan.

So'zshunos A.Rustamovning ko'rsatishicha, «Mard yigitni» «arslonday» yoki «sherday yigit» deyilsa, o'xshatish yoki tashbeh bo'ladi, agar «yigit» so'zini tushirib «arslon» yoki «sher» deyilsa, istiora bo'ladi. Agar mug'ombir kishini «tulkisifat kishi» deyilsa, o'xshatish, agar «tulki» deyilsa, bu istioradir. Metafora bir jihatdan so'zning til doirasidagi ma'no ko'chishini ham o'z ichiga oladi. Istiora esa mazmun jihatdan metaforaga nisbatan tor bo'lib, uslubga xos atamadir.⁴³

2. Uy hayvonlarining nomlarini va ularning bolalarini anglatuvchi so'zlar: (leksikalizasiyalashgan so'z birikmalari) *it, eshak, ho'kiz, bo'ta, qo'chqor, qo'zi, itvachcha, tuya, kuchukvachcha, cho'chqa, megajin, uloq, taka, shumtaka, sassiqtake, buzoq* va boshqalar. Bunday so'zlar guruhida leksikalizasiyalashgan so'z birikmalari yetakchilik qiladi, ular ham epik qahramon nutqidagi metaforik ma'noda qo'llanish orqali emotsional-ekspressivlik va stilistik bo'yoqdorlik hosil qilgan: Anda Qunduzoyim xulqi-xo'yi muloyim, Yulduz parizod do'stidan bu so'zlarni eshitib, bilib, ilonday qahri kelib, ajdarhoday zahri kelib, ilonday to'lg'anib, ajdarhoday ishqirib, achchig'i kelib, Yulduzoy parizod do'stiga qarab, zulfini tarab, ro'molini qiyshiq o'rab: «Sen qachondan beri avliyo bo'lib aytadigan bo'lib eding?» - deb so'rab: «Ha beti qora, *it manglay, kurra tanglay*, qulog'i teskari bitgan, esi ketgan, yo'qol, *poda mijoz*, ko'ktirnoq, *ho'kiz qorin*, mechkay. Nima deding *to'qol?! Ko'zimga ko'rinmay yo'qol!* (III, 324);

Qizlar daryoday toshadi,
Oldidan shamol esadi,
Oq betiga oppoq terlar,
Chopganda yerga tushadi.

⁴³ Рустамов А. Сўз ҳақида сўз. – Тошкент, 1987. – Б. 39.

Bir-birini itarishib,
Shoʻxligi haddan oshadi.
Yurolmaydi semiz qizlar,
Charchab qolib pishnashadi.
Keyin qolsa, qarab tur, deb,
Toy-baytalday kishnashadi.
Joʻn yur desa, satta mast qiz
Bir-biriman mushtlashadi.
Biri-biriga osilib
Gavdasini tashlashadi,
Oʻz oldiga oʻyin qilib
Oʻz koʻnglini xushlashadi.
Bir-biriga boshin irgʻab,
Roʻmollarin tishlashadi.
Tuya qator boʻlib bari,
Koʻchada qatorlashadi. (III, 307) kabi.

Bu misollardagi *it*, *kurra*, *hoʻkiz*, *toy*, *baytal* uy hayvonlarining nomlarini ifodalovchi soʻzlar aslida epik qahramonlarga nisbat berilgan, ularning metaforik maʼnoda qoʻllanilishi orqali emotsional-ekspressivlik va stilistik boʻyoqdorlik hosil qilishga xizmat qilingan.

3. Qushlar va uy parrandalarini anglatuvchi soʻzlar: *bulbul*, *qargʻa*, *quzgʻun*, *kalxat*, *qarchigʻay*, *lochin*, *sarlochin*, *burgut*, *sinchalak*, *chittak*, *toʻti*, *boyqush*, *jibljibon*, *xoʻroz*, *tovuq* va boshqalar. Bunday soʻzlar ham syujetning epik bayonida metaforik maʼnoda qoʻllanilgan, matnda emotsional-ekspressiv boʻyoq hosil qilgan:

Qarchigʻayim eding, qochding qoʻlimdan,
Toʻlgan oyim eding, botding elimdan,

Ayrildim sendayin joni dilimdan,
Olg 'ir shunqorim, bozim omon bo'l.
Sen eding bog'imda guli gulzorim,
Umrimning mevasi, navda chinorim,
Suyangan tog'imsan, xeshu taborim,
Qush chertmas lochinim, olg 'ir shunqorim,
Ko'limda yuzgan g'ozim omon bo'l. (III, 381) yoki
Itilgiday imtilib, Qarchig 'ayday qimtilib,
Suvsiz cho'lda boradi, Uchar qushday qutulib.
(III, 219) kabi.

4. Gazandalarni anglatuvchi so'zlar: *gazanda, ilon, chayon, kaltakesak, mingoyoq, kasratki* va boshqalar: Bunday so'zlar ham xalq baxshisining epik bayonida yoki epik qahramon nutqida metaforik ma'noda emotsional-ekspressiv bo'yoq hosil qilishga zamin tayyorlagan:

Xazon bo'lsa g'ozlar qo'nar gulshanga,
Ajalli *kasratki* tegar *ilonga*. (III, 267) yoki

Ana Qunduzoyim xulqi muloyim, Yulduz paridan bu achchiq-chuchuk, toshdan qattiq so'zlarni zshitib, qahri kelib, *ilonday* zahri kelib, *ajdarday* to'lg'anib, badani olovday yonib, dami o'tday tutanib, ko'ziga yosh olib, munojot qilib, qoshidati Yulduz do'stini mot qilib bir so'z dedi. (III, 424)

5. Hashoratlarni, qurt-qumursqalarni anglatuvchi so'zlar: *chigirtka, o'rgimchak, chivin, bit, kana, zuluk, chumoli* va boshqalar shular jumlasidandir: Ana endi Bol Avaz qarasa, Ko'sa Cho'ntoqni yalang'ochlab qo'yib yuboribdi, qirqta xurjun bilan sakson to'rvani oftobga yoyibdi, o'zi tirday yalang'och bo'lib ko'ylak-ishtonini yechibdi, burni pichoqning qiniday bo'lib, o'zi tirik emas, o'likday bo'lib, labi ariqning roshiday bo'lib, iyagi egarning qoshiday bo'lib, oftobga o'zini solib, *bitini* qarab yotibdi. *Qurbaqaday, tashbaqaday bitlarini*

mushtlab, mushtiga o'lmaganini tishlab, biti bilan katta urush, janjal qilib yotibdi. Ikki qo'li, beti qon bo'lib qolibdi, Ko'sa odam so'ygandan ham yomon bo'lib qolibdi. Bir palla *itday* cho'chchayib o'tirdi. Avazxonga ko'zi tushdi, uyqusi qochdi, dami ichiga tushdi, qorni meshday bo'lib ishdi, aqlidan adashdi, o'ziga o'zi kengashdi; tura solib ishton-ko'ylagini kiyib oldi. (III, 251)

Shu bilan birga **diniy-afsonaviy tushunchalarni anglatuvchi so'zlar** ham metaforik ma'noda emotsional-ekspressiv bo'yoq yaratadi: *alvasti, jodugar, xizir, azriol, farishta, shayton, iblis, dev, jannat, do'zax, jahanam, ajina, ajdarho* kabilar. Bunday so'zlar ham xalq dostonlari matnida emotsional-ekspressiv bo'yoq yaratishga, syujet oqimiga mos epik bayonni qiziqarli, badiiy tasvirlashga xizmat qilgan: Avaz beklarga qattiq gunohkor bo'ldi. Ana shunda beklar ikkovora, uchovora shipir-shipir bo'laverdi: «Agar bizlar qo'limizdan piyola tushirsak, Go'ro'g'libek otu to'nimizni, yov-yarog'imizni, har nima borimizni sottirib olar edi. Endi bizlarning o'rtamizda o'zining o'g'li gunohkor bo'ldi. Ko'rayik, qani bek nima qilar ekan», - deb shipirlasha berdi. Anda Go'ro'g'libek bularning xayolini anglab, har ko'zi olovday bo'lib yonib, *ajdarday* bo'lib to'lg'anib: «Ey beklar, mening o'g'lim Bolim Avaz sizlarga gunohkor bo'libdi. (III, 203); Ana endi Qunduz bechora qo'rqmay eri bilan yotdi. Erta bilan tong otdi. Avazxon ham Qunduzoy qo'rqmasin deb har zamon Qunduzga gap qotib turar edi. Kun chiqib choshka bo'lgandan so'ng Avazxon bir behush bo'ldi, aslo o'zini bilmay qoldi. Qunduz shuncha «ko'zingni och, to'ram» - dedi, bilmadi. Shunda Qunduzoy bechora yig'lab, Avazxonning betiga termilib o'tirib edi, qabatidagi toshga qirq kaptar kelib qo'ndi, bir ag'nab bir qiz bo'la berdi, ana shularning o'rtasida *Yulduz pari* turib aytadi: «U Qunduzjon, endi sochingni yoya ber, betiigni so'ya ber, Avaz ering o'lib qoldi! (III, 420).

Ergash shoir ijodiga mansub dostonlarda qadimiy totemistik munosabatlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan zoonimlarni metaforik qo'llanishiga doir quyidagi dalillar boshqa epik asarlar uchun ham an'anaviy badiiy ifoda vositasi hisoblanadi:

Qirqi ham yigitlarning zo'ri,

Chambilbelning atoqli *sheri*(62, III) yoki;

Otam ham enamning joni diliman,

Chambilbelida *yo 'lbars*lardan bo'laman (230, III).

Keltirilgan misollardagi *sher*, *yo 'lbars* kabi zoonimlarni metaforik ma'nolari qirg yigit, Avazxon obrazlarini mard, jasur, pahlavon ekanliklarini, tavsiflash vazifasiga ko'ra, qadimgi turkiy yozma manbalardagi o'xshatish va yashirin o'xshatish namunalari bilan funksional umumiyliigi ko'rinadi. Masalan, qadimgi turkiy yozma manbalarda uchraydigan quyidagi misollar bu fikrlarni asosli ekanligidan dalolat beradi:

Tengri kuch bertuk uchun qangim susi **bo'ri-tek** yermis.

Yag'is **kon-tek** yermis...(Tangri kuch bergani uchun otam hoqonning lashkari bo'ridek ekan, dushmani qo'ydek ekan).⁴⁴

Xuddi shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchraydigan "arслан qarisa, sichg'an otin kozazur" - arslon qarisa sichqon inini poylaydi (DLT, 384, III) yoki "Qarg'a kazg'a otkunsa buti sinur" - qarg'a o'zini g'ozga o'xshatsa buti sinadi (DLT, I, 255) singari xalq maqollarida zoonimlarning metaforik qo'llanilishi, hamda Bug'ra Qaraxan (bug'ro - erkak tuya, DLT, III, 397), Barslan - qoplon ma'nosidagi mustaqil so'z (DLT, 424, III) singari antroponimlarga berilgan izohlarda qayd etib o'tilgan qadimiy an'analar o'z aksini topadi. Bular xususida ko'pgina tadqiqotlarda zarur dalillar keltirilgan holda ancha keng ilmiy mulohazalar yuritilgan.⁴⁵

Zoonimlarning metaforik qo'llanilishi yigit, er yigit singari aniqlovchi komponentlar qurshovida ham uchraydi. Bunday hollarda zoonimlarning nom ko'chishi orqali mard, jasur va zabardast singari unumlashma ma'no, yigit va er yigit singlarlarga qaratilganligi yana ham aniqroq anglashiladi va ma'no kuchayadi:

Yigitning *nori* shunda,

⁴⁴ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 114.

⁴⁵ Ushbu o'rinda qadimgi turkiy manbalarda ham zoonimlarning metaforik qo'llanilganligi izohlanayapti.

Er yigitning *shunqori* shunda (334, III).

Ba'zi o'rinlarda yashirin o'xshatish, metaforik epitetlar bilan qo'llangan holda qahramonlarning tasvirlanayotgan voqelik bilan bog'liq holatini shiddatli tus olganligini ifodalaydi:

Beklar bo'ling *keskir lochin*,

Dushmanga qo'ymagin o'ching(116, III).

Zoonimlarning metaforik nom ko'chishi orqali qahramonlarni mard, jasur, pahlavon ekanligini ifodalashga doir namunalar biz ko'rib o'tgan boshqa dostonlarga nisbatan turkman "Go'ro'g'li"⁴⁶ dostonida ko'proq uchraydi:

Xatarlar ichinde *esrik ner* iding,

Ag'zımdan ak ko'puk sachan gunlerim.(610);

G roglı diy r, Chand ybiller,

 Inxa yat r bizin *shirler*. (614)

Shu narsa ham xarakterliki, zoonimlik metaforalarning I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchalarini olgan holda qo'llanilishi, yuqorida sanab o'tilgan mard, jasur, dovyurak, bahodir singari ma'nolariga erkalash, suyish ottenkasini qo'shgan holda, farzand, uka yoki aksincha, ota, uka, aka singari yaqinlik, qarindoshlik ma'nosini ifodalaydi. Bunday ma'nolar ko'proq personajlarning yaqin qarindoshlariga, yorlariga murojaatlarida uchraydi: Hasan mardning o'g'li Ravshanbekning Nuralibekka murojaatida:

G'ayrat bilan minibsiz otning ustiga,

E *qo'zi-qo'chqorim*, inim, yo'l bo'lsin?

Chillada mast *norim*, inim, yo'l bo'lsin,

Qiyg'irim, *shunqorim*, inim, yo'l bo'lsin (439, III).

Xuddi shunday murojaat dostonlarda xotin-qizlar obraziga nisbatan ham qo'llaniladi. Ayni paytda bunday qo'llanilish, dostonlar uchun an'anaviy holda xotin-qizlarni mard, jasur, pahlavon va jangovar shaxslar sifatida tasvirlash bilan

⁴⁶ Г r glı. - Ашгабат, 1958. - 627 б.

bog‘liq bo‘liq bo‘lib, bu an’anaviylik tarixan ma’lum bo‘lgan paterialxal-urug‘chilik davri aks-sadosidir.

Masalan, Ergash baxshi tomonidan kiritilgan “Qunduz bilan Yulduz” dostonida yarador bo‘lgan Avazxon o‘rniga jangga kirgan Qunduzoyini ana shunday jasur ekanligiga ishoralar, Avazbek va Qunduzoyini Chambilga kuzatish epizodidagi onaning Qunduzoyga quyidagi kabi xayrlashuv murojaatida o‘z aksini topadi:

*Qarchig‘ayim eding, qochding qo‘limdan,
To‘lgan oyim eding, botding elimdan,
Olg‘ir shunqorim, bozim omon bo‘l,
Ko‘limda yuzgan g‘ozim omon bo‘l(381, III)..*

Turkmanlarning “Go‘ro‘g‘li” dostonida ham zoonimlarning metaforik qo‘llanilishi tadqiqot manbalarimiz bo‘lgan dostonlar bilan ko‘p jihatdan o‘xshashlik kasb etadi:

*Мысары́р yerlerde ха́гы-за́р boldum,
Алгы́р lachым, boz shunqarым, нәм boldi. (Gorogly, 369)*

Dostonlarda qarindoshlik, yaqinlik ma’nosini metaforik ifodalashga doir kam uchraydigan namunalar ham saqlanib qolgan. Xususan, ota tushunchasini ifodalashda turli davrlarda tilimizga kirib kelgan aniq va abstrakt tushuncha ifodalaydigan so‘zlarga xos metaforik ko‘chim muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

*Otajanim, mehribonim, rahbarim,
Qo‘lqanotim, tojdorim, rahbarim,
Zangar elga e‘tiborim, rahbarim,
Sog‘ingan kunda xumorim, rahbarim. (373, III).*

Mazkur misralarda qo‘llangan mehribonim, rahbarim, qo‘lqanotim, tojdorim, xumorim, elga e‘tiborim kabi leksik birliklar otaning beqiyos va serqirra fazilatlarni ochib berish hamda obrazli ifodalash bilan bir qatorda, mazkur so‘zlarning semantikasini ota so‘zi bilan tenglashtirish, o‘xshatish orqali nom

ko‘chish yuzaga kelgan. Zero, ota tushunchasi barcha davrlarda ham mehribonlik, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchilik, eng ishonchli tayanch, maslahatgo‘ylik fazilatlar bilan farzand uchun tojdor va elga e‘tiborli ideal shaxs hisoblanadi. Ayni paytda ota uchun xarakterli bo‘lgan bu fazilatlar kishilar o‘rtasida bu zotlarga nisbatan muqaddas, tabarruk inson tushunchasini ham ifodalaydi. Shoirning Qunduzoy tilidan bayon qilingan ota haqidagi she‘riy satrlarining keyingi qismida otalarning tabarrukligi, muqaddasligi, ulug‘ligi, Makka, Madina va qiblagohga o‘xshatishlari misolida namoyon bo‘ladi:

Ota endi habaring yo‘q o‘zingdan,
Armonman ayrilding jodu ko‘zingdan,
Makkamsan, Madinam - qiblagohimsan,
Rozi bo‘l, otajon, Qunduz qizingdan. (373, III)

Shuningdek, metaforik ma‘no kasb etuvchi bu leksik birliklarni uyushgan holda ketma-ket takrorlanib qo‘llanilishi, ifodaning gradatsiyalangan holda kuchayib borishi, emotsionallikni yana ham oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, dostonlarda shunday metaforalar ham borki, ular yuqorida sanab o‘tilgan metaforik leksik birliklardan farqli ravishda ko‘p komponentli bo‘lishi bilan farqlanadi. Masalan, farzand ma‘nosini metaforik ifodasi bo‘lgan quyidagi birliklar dostonlarda tez-tez takrorlanadigan ana shunday badiiy ifoda vositalaridandir:

Suvdan suluv, qalam qoshim sen eding,
Umriming mevasi, novda chinorim. (381, III)
Qush chertmas lochinim, olg‘ir shunqorim. (381, III)
Falak peshtoqida uchgan yulduzim,
Ulug‘ daryolardan chiqqan Qunduzim. (379, III)

Dostonlarda ot va uning anjomlariga doir leksik birliklar ham metaforik ma‘noda qo‘llangan holda tayanch, ishonchli shaxs ma‘nolarini yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi:

Ot minsa ham *ayil-pushtan*, to‘qamsan,

Sovut kiysam *kirovkali* yoqamsan. (30, III)

Ahmad Sardor va Xoldorxonga nisbatan Go'ro'g'libekning murojaatida qo'llangan bu metaforalar, ayil-pushtan, to'qa, kirovkali yoqalarning ijtimoiy turmushdagi vazifalarni va qayd etib o'tilgan obrazlarning bajarilishi kerak bo'lgan vazifalari o'rtasidagi o'xshashliklar qiyoslanishi orqali yuzaga kelgan. Xususan, ayil-pushtan, to'qalar birgalikda ot egar-jabdug'ini mustahkam bog'lab, ushlab turuvchi vosita bo'lsa, kirovkali yoqa ham jangda bo'yinni qilich hamlasidan saqlovchi metall himoya vositasidir. Bu predmetlar va qayd etilgan obrazlar vazifalari o'rtasidagi o'xshashlik esa, mazkur metaforalar qo'llangan bandning keyingi qismida anglashiladi:

Unutmanglar sizga aytgan so'zimni,

Biring mahram, biring Ahmad tog'amsan. (30, III)

Darhaqiqat, qarindoshlik va sadoqatli mahramlik feodal davlatchilik tizimida eng muhim tayanch, taxt va podsholiklarni mustahkamlash mavqeiga ega bo'lish garovi hisoblangan holatlardan biri bo'lgan.

Shu narsa ham xarakterliki, Ergash baxshi tomonidan kuylangan dostonlarda mard, jasur, botir singari sifatlarga ega bo'lgan qahramonlar obrazini yaratishda zoonimlardan va boshqa ko'pgina leksik birliklardan ham keng foydalaniladi. Masalan, "Ravshan" dostonida farzand hamda uning jismoniy va ruhiy shaxs ekanligini obrazli tasvirlash maqsadida, shoir bir o'rinda anor, nor, xanjar, elga yetibor, bozor, bahor, shunqor, qo'zi-qo'chqor, chinor, xumor singari o'zaro ohangdosh so'zlardan mahorat bilan foydalanishi buning yaqqol dalilidir:

Bog'imda anorim..., sersavdo bozorim..., umrimga bahorim..., talpingan shunqorim..., bir qo'zi-qo'chqorim..., novda o'sgan chinorim; sog'insam xumorim senga yo'l bo'lsin?(380, III).

Ergash shoir ijodining o'ziga xos xususiyatidan dalolat beruvchi bu ma'lumotlar "Qunduz bilan Yulduz" dostonida ham o'z aksini topgan. Xususan, shoir dramatik sahnalarda, aksariyat hollarda yuqoridagi kabi mazmunan bir tushunchaga qaratilgan metaforalarni ketma-ket gradatsiyon qo'llash orqali

tinglovchiga voqelikni to'la va aniq qilib yetkazishga erishadi. Masalan, Qunduzoyga onasining quyidagi birikma va so'zlar bilan murojaati mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi:

So'zlar so'zim, ko'rar ko'zim falak peshtoqidan uchgan yulduzim, ulug' daryolardan chiqqan Qunduzim, yolg'izim, kechalik kunduzim, mo'min bolam, ko'rpa qo'zim, qalam qoshim, mungdoshim, davlatboshim, sirdoshim, umrimning mevasi, novda chinorim, suyangan tog'im, xeshu tabarim omon bo'! (378, III).

Xalq dostonlarida keng qo'llanuvchi metaforalarning ko'pchilik qismi an'anaviy bo'lib, ular klassik shariyatning barcha bosqichlarida ham keng qo'llangan:

Senday o'g'lon bog'da ochilgan lolami?

Ikki ko'zdan oqqan qonli jolami?(245, III)

Ko'z yoshi-qonli jalaga qiyoslansa, ushbu holatda oyim so'zi beka ma'nosini ham ifodalaydi:

Noz bilan oyim jo'nadi,

Irg'alib oyim jo'nadi.

Oyimlar zulfin tuyadi,

Qoshu qobog'in uyadi. (301, III)

Ergash shoir ijodiga mansub dostonlarda metaforik nom ko'chish orqali bir leksemaning ma'no tarmoqlanishiga doir noyob namunalar ham o'z aksini topgan. Xususan, *yugurik* ko'p ma'noli so'zining dostonlarda quyidagi kabi ma'no tarmoqlanishi shundan dalolat beradi:

1.**Yuguruk** (yugur+uk), fe'ldan yasalgan sifat. O'z ma'nosida quyidagicha qo'llaniladi:

Tomosha qing nazarkarda G'irotni,

Qistadi jonivor uch otdan o'tdi.

Yo'lda qoldi ne bir *yugruk* tulparlar

Quvalab qora otga G'irko'k ot yetdi. (276, III)

2. **Yuguruk** soʻzi ishtirok yetgan misralarda sifatlanmishning tushurilishi, yaʼni epetik qoʻllanilishi, mazkur soʻzning otlashishiga va chopqir, tez yugurar ot maʼnosini ifodalagan holda nom koʻchishiga asos boʻladi:

Bu zohirda yomon kuning boʻlmasin,

Yugruk minib, suluv suygin, Avazjon. (25, III)

3. **Yugurik** soʻzi metaforik epitet sifatida shaxsga nisbatan ham qoʻllanadi. Bunda soʻzning asl(oʻz) maʼnosidagi tez, chopqir kabi belgilar fikriy harakatga nisbatan qoʻllanilib chechan, soʻzga usta singari maʼnoni ifoda etadi:

Bir ovoza boʻldi boʻldi oʻzbek elida,

Hech yerda yoʻq bunday *yuguruk* baxshi.

4. Juft soʻzning komponenti sifatida qoʻllanilib, chaqqon, epchil singari xususiyatlarga ega boʻlgan shaxslarni umumlashma maʼnosini yuzaga keltiradi:

...Yaxshi-yomon, *yuguruk-chobon*, qiz bilan juvon, umaro-fuzalo, fuqaro...
guyoki odam qolmay tomoshaga chiqqan(23, III).

“Alpomish” va “Qirqqiz” dostonlarida yuguruk soʻzi yakka holda ham chaqqon, epchil, mohir shaxs maʼnosini ifodalaydi. Shuningdek, bu soʻz qoliplangan obrazli bir xil misraning komponenti sifatida ham qoʻllaniladi:

Ne bir gʻana juyruklar,

Tuyagʻinan mayrildi.

Arman minan ah urib,

Bala atadan ayrildi. (“Qirqqiz”, 247)

Uchqur boʻlsang qanotingdan qayrilib,

Yugurik boʻlsang toʻyogʻingdan tayirilib(“Alpomish”, 123).

Bu soʻz oʻz maʼnosida “Shayboniynoma” asarida ham uchraydi:

Peshkash ayladi otlar bisyor,

Barchasi yuguruku, barcha rahbar(“Shayboniynoma”, 134).

Xulosa qilib aytganimizda, zoonimlarning badiiy ifoda vositasi sifatida qoʻllanishi epik asarlar uchun qadimdan anʼanaviy tusga kirib qolgan boʻlib, ular birgina metaforalar doirasida chegaralanib qolmagan. Vaholanki, dostonlarda

zoonimlarga xoslangan o'xshatish, sifatlash (epitet), metonomik nom ko'chishi va boshqa badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishiga doir qadimiy va nodir namunalar ham anchagina uchraydiki, ularning bu xususiyatlarini o'rganish galdagi vazifalardandir.

XULOSA

Hozirgi o'zbek tilimizni har tomonlama o'rganish o'z milliy qadriyatlarimizni tiklashdek ulug' ishning asosi bo'lib xizmat qila oladi. O'zbek folklori asarlaridan shoirlar, yozuvchilar unumli foydalanadilar, shu yo'l bilan ham folklor asarlari badiiy adabiyot tiliga, adabiy tilga, bu vositalar orqali esa o'zbek shevalari so'z boyligining rivojiga katta ta'sir etadi. Shubhasiz, umumxalq o'zbek tilining, shu jumladan o'zbek adabiy tilining ham lug'at sostavi va lug'at fondidagi bazaviy so'zlar birlikni, bir butunlikni tashkil etadiki, bu birlik ularni qardosh turkiy tillar bilan ham tutashtiradi.⁴⁷ Shunday ekan, xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan dostonlarning leksik boyligini atroflicha o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, Go'ro'g'li turkumiga kiruvchi «Qunduz bilan Yulduz» dostonining tarixiy dialektologiya va tarixiy grammatikaga oid leksik xususiyatlarini tahlil qilish, ular anglatgan rang-barang ma'nolarni aniqlash tadqiqotimizning asosini tashkil qiladi. Vaholanki, doston matnlarini lisoniy nuqtayi nazardan tahlil etish o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibini boyitishda muhim rol o'ynaydi.

Dostonlar tilida uchraydigan ko'lab tarixiy qimmat kasb etuvchi lug'aviy birliklar qatorida zoonimlar ham xalqimiz tarixini, turmush-tarzini, uzoq o'tmishdagi mashg'ulotini, bir so'z bilan aytganda, madaniy va ma'naviy kechmishini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga doston tili sheva so'zlarga boydir. Unda, asosan, qipchoq shevasiga oid so'zlar yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, asar leksikasi, uning tarkibidagi zoonimlar guruhi ham tematik jihatdan rang-barangdir. Tahlillar asosida quyidagicha umumlashma xulosalar qilish mumkin:

Follor asarlari tili o'zbek shevalari uchun manba vazifasini o'tay oladi. Xalq dostonlarining lug'at tarkibini o'zbek shevalarining turli dialektlariga munosabatini belgilash yo'nalishida ham o'rganish mumkin. Doston leksikasida

⁴⁷ Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалари лексикасининг тараққиёт манбалари ва улардаги лексик фарқлар // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1989. – Б.54.

ko'pgina lisoniy dalillar borki, ular shevalarning murakkab tashkil topish tarixini aniqlashda, hamda unutilib ketgan ko'plab tarixiy so'zlarni tiklash va izohlashda yordam beradi. Doston materiallarini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil etish o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibini boyitishda katta ahamiyat kasb etadi.

Zoonimlar o'z nominativ funksiyasidan tashqari, xilma-xil uslubiy qirralar ham kasb etib borgan. Shu jihatdan ham dostonlar tilida saqlanib kelinayotgan boy lug'aviy birliklarni til va nutqiy jarayon bilan bog'liq holda o'rganish tilimizda nihoyatda keng tarqalgan polisemiya hodisasi, nom ko'chish usullari, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlarini yuzaga kelish jarayoni hamda bu hodisalarni nutqiy jarayonda uslubiy bo'yoq kasb etishi singari ko'plab xususiyatlarni yorqin tasavvur etishda katta imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Shuning uchun ham biz to'plagan bir yuz oltmishdan ziyod zoonimlarni ko'rsatib o'tilgan tasniflarida o'z aksini topgan semantik xususiyatlari, eng avvalo, kishilarning xilma-xil hayvonlarni atashdagi turlicha belgilariga asoslanadi. Bu belgilar ayni paytda ta'kidlanganidek, insonlarning xilma-xil xatti-harakatlarini, xulq-atvorlarini ochib berishda ham uzoq asrlardan bo'yon qimmatli ma'lumot sifatida foydalanib kelinmoqda. Dostonlarda uchraydigan mazkur xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni keng miqyosda leksik-semantik hamda uslubiy jihatdan tahlil qilish har tomonlama foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Islom Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. - Тошкент: Фан, 1971. - 183 б.
3. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. - 167 б.
4. Ўзбек шевалари лексикаси. - Тошкент: Фан, 1989. - 409 б.
5. Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). - Ташкент, 1978.
6. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200.
7. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. - Тошкент: Фан, 1979. - 160 б.
8. Yo'ldosheva D. O'zbek tilida ornitonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari haqida. – Samarqand, 2007. –105 b.
9. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 2005. - 160 б.
10. Жуманиёзова М.Х. Хоразм халқ кўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1999. -24 б.
11. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. - 288 б.
12. Жуманазарова Г.У. «Ширин билан Шакар» дostonининг луғавий ва лингвоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варинти асосида):Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2008. -26 б.
13. Зоҳидов Т.З. Зоология энциклопедияси. Қушлар. – Тошкент, 1957.

14. Ибрат. «Эргаш Жуманбулбул ўғли ижодининг маънавий қадриятларни юксалтиришдаги ўрни ва аҳамияти» илмий-амалий анжуманининг материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 84 б.
15. Ишаев А. Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. -№5. - Б.56-58.
16. Исҳоқов Ф. «Зарбулмасал»даги куш номларига доир // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1973, №1. -Б.46-50.
17. Ишбердин Э.Ф. Наименования птиц в башкирских говорах // «Вопросы башкирского языкознания». – Уфа, 1973.
18. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.- Самарқанд: СамДУ нашри, 1994. - 72 б.
19. Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номз. ...дис.. –Тошкент, 2007. -160 б.
20. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
21. Носиров Ш. Диалектал орнитологияга оид кузатишлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1986, №5. -Б. 56-60.
22. Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. -27 б.
23. Рустамов А. Сўз ҳақида сўз. – Тошкент, 1987. – 155 б.
24. Турсунов С. «Алпомиш» дostonи лексикасини ўрганишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. -№ 3. - Б. 36-38.
25. Тўрақулов О. Қўқон группа шеваларининг хусусий лексикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. -№2. - Б.79-83.
26. Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. - 160 б.

27. Усмонов С. Йилқичиликка алоқадор номлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1987, №6. -Б. 55-57.
28. Халиқов А. «Гўрўғлининг туғилиши» достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2009. - 26 б.
29. Холмуротова Ж. «Қирқ минглар» достони лексикасининг адабий тилга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент, 1996. - № 4. - Б. 64-66.
30. Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм достонлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф.–Тошкент, 2000. – 27 б.
31. Шоабдурахмонов Ш. «Равшан» достонининг тили ҳақида // «Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни» тўплами. 2-китоб. - Тошкент, 1971. - Б. 146-172.
32. Шоабдурахмонов Ш. Эргаш Жуманбулбул достонларида ифода ва тасвирийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1970. - № 5. - Б. 43-50.
33. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. - 248 б.
34. Ўзбек тили лексикологиси. – Тошкент: Фан, 1981. –Б. 164.
35. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. - Тошкент: Фан, 1977. - 152 б.
36. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - 160 б.
37. Ҳафизова А. «Келурнома» лексикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. -№5. - Б.68-71.

II. Lugʻatlar

38. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. - Тошкент: Фан, 1960. – 499 б.

39. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Уч томлик. II том. - Тошкент: Фан, 1961. – 427 б.
40. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Уч томлик. III том. - Тошкент: Фан, 1961. – 463 б.
41. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
42. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2000-2006.
43. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006-2008.

III. Badiiy manbalar

44. Алишер Навоий. Асарлар. 14-том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. -103-132.
45. Гөрөғлы. - Ашгабат, 1958. – 627 б.
46. **Қундуз билан Юлдуз.** Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли / Булбул тароналари, беш томлик, 3-том. - Тошкент: Фан, 1972. – 473 б.

MUNDARIJA

Malakaviy bitiruv ishining umumiy tavsifi.....	3-6
Kirish.....	7-13
I Bob. «Qunduz bilan Yulduz» dostonidagi zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	14-31
1.1. Xalq dostonlarida ot nomlari va ularning leksik-semantik belgilari.....	14-19
1.2. Xalq dostonlarida qush nomlari	20-26
1.3. Xalq dostonlarida hayvon nomlari.....	26-31
II Bob. Doston matnidagi zoomorfizmlar va ularning uslubiy xususiyatlari...	32-48
2.1. Zoonimlarga xoslangan emotsional bo‘yoqdorlik	32-36
2.2. Zoomorfizmlarning metaforik xususiyatlari.....	36-48
Umumiy xulosalar.	49-50
Foydalanilgan adabiyotlar.....	51-54